

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 894.3:494.3

TILAVOVA BIBISORA XOLMAMATOVNA

«OYCHINOR» DOSTONINING TIL XUSUSIYATLARI

5A220102 - «Lingvistika» (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Karimov S.A.

Samarqand – 2016

MUNDARIJA

Tadqiqotning umumiy tavsifi	3
Kirish	7
Birinchi bob. <i>«Oychinor» dostonining leksik-statistik va morfologik-statistik xususiyatlari.</i>	11
Ikkinchi bob. <i>Dostonning leksik-stilistik xususiyatlari.</i>	34
Uchinchi bob. <i>Dostonning grammatik-stilistik xususiyatlari.</i>	58
Umumiy xulosalar.	90
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	93
Ilova	97

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Sobiq sho‘rolar davri olib borgan mash‘um siyosatning muhim bir qismi mustamlaka mamlakatlari xalqlarining milliy o‘zlikni anglashiga keskin zarba berish edi. Shu maqsadda ular madaniy merosimizni o‘rganishga jon-jahdlari bilan to‘sqinlik qildi, hatto «Alpomish» singari buyuk asarni ham kommunistik mafkura manfaatlariga zid asar sifatida qoralashdi. Ona tilimizni o‘rganishni asta-sekinlik bilan chegaralab bordi. Ammo qo‘lga kiritilgan istiqloq milliy qadriyatlarimizning o‘zagi bo‘lgan ona tilimizga bo‘lgan munosabatimizni ham belgilab berdi.

Muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimovning «Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur»,¹ degan qarashlari bugun ona tilimizni har tomonlama o‘rganish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, ona tilimiz tarixini, uning ajralmas qismi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalari tilini o‘rganishda ham dasturilamal bo‘lmoqda.

Shu ma‘noda, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yuksak namunalari sanaladigan dostonlar xalq tili materialini qamrab olish jihatidan keng imkoniyatlarga ega. Shu bois xalq dostonlarini lingvostilistik jihatdan tadqiq etish dolzarb vazifalardan bo‘lib hisoblanadi.

To‘g‘ri, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, folklor asarlari tizimida muhim o‘rin egallaydigan «Oychinor» dostoni tili va uslubiga xos bo‘lgan xususiyatlarning shu paytga qadar o‘rganilmay kelinganligi mazkur magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek lingvofolkloristikasi tadqiqotlarining bir yo‘nalishida dostonchiligimizda katta mavqega ega bo‘lgan «Alpomish», «Ravshan», «Shirin bilan Shakar», «Xoldorxon» singari dostonlarning tili va uslubini tadqiq etishda muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilgan.

¹ **Ислом Каримов.** Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008, -Б.87.

Ammo o‘zbek tilshunosligida bu kabi tadqiqotlar o‘zbek xalq dostonlari orasida badiiy-estetik jihatdan alohida o‘ringa ega bo‘lgan «Oychinor» dostoni yuzasidan olib borilgan emas.

Tadqiqot jarayonida birinchi marta «Oychinor» dostoni misolida O‘zbekiston xalq baxshisi Qodir Rahimovning o‘zbek dostonchiligidagi an’anaviylikka munosabati va individuallik prinsiplari til elementlarining funksional-stilistik qo‘llanilishi misolida ochib berildi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Tadqiqot Samarqand Davlat Universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida 2011-2015-yillarga mo‘ljallangan «O‘zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)» mavzusining tarkibiy qismi hisoblanadi va kafedraning 2014-yil 9-sentabrdagi 2-son majlisida va SamDU ilmiy kengashining 2014-yil 26-noyabrdagi majlisida tasdiqlangan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. «Oychinor» dostonining leksik-grammatik, o‘rni bilan fonetik elementlarining stilistik xususiyatlarini, dostonning sintaktik qurilishini, unda stilistik figuralarning tanlanishi va qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlarini lingvostilistik nuqtai nazardan tahlil etish tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblandi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, ishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- kompyuter yordamida dostonning elektron matni yaratildi;
- yaratilgan elektron matn asosida mavjud kompyuter dasturlariga tayanilgan holda alfavitli-chastotali va ters so‘zliklar tuzildi;
- yaratilgan lug‘atlar asosida doston matnida muhim ahamiyat kasb etadigan til birliklarining chastotasi aniqlandi.

Shu asosda:

- o‘zbek xalq og‘zaki dostonchiligi an’analarini belgilaydigan til elementlari lingvostilistik nuqtayi nazardan tahlil etildi;

-Qodir baxshining xalq tilidan foydalanishdagi individual uslubini vujudga keltirgan nutqiy vositalar tahlil etildi, o‘zbek xalq dostonchiligida davom etib kelinayotgan ohang, bayon uslubi bilan taqqoslandi;

- doston uslubiga xos bo‘lgan struktural o‘zgarishlar o‘rganildi, ta’sirchanlik vositasi sifatida ularning she’riy matndagi ishtirokiga baho berildi;

-doston aytish manerasi uchun xos bo‘lgan sintaktik qurilmalar tahlil etildi;

-tahlil natijalariga ko‘ra Qodir baxshining o‘zbek xalq dostonchiligi, xususan, uning tili taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida ayrim xulosalar bayon qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. «Oychinor» dostoni matnining lingvostilistik yo‘nalishda ilk marta monografik tarzda o‘rganilishi ishning ilmiy yangiligi bo‘lib hisoblanadi.

Bu yangilik quyidagilar bilan belgilanadi:

- dostonning elektron matni yaratildi va shu asosda birinchi marta alfavitli, chastotali va ters lug‘atlari tuzildi. Tuzilgan ushbu lug‘atlar doston tili va uslubini o‘rganish uchun asosli manba vazifasini o‘tadi;

- dostonlar tiliga xos bo‘lgan an’anaviy leksik-grammatik va stilistik vositalar tahlil etildi va shu asosda o‘zbek dostonchilik uslubiga, xususan, uning Sherobod maktabi va Qodir baxshi uslubiga xos jihatlari aniqlandi;

- doston matnidagi tasviriy vositalarning, jumladan, o‘xshatish, epitet, metafora kabilarning doston aytuvchi g‘oyaviy-estetik niyatining yuzaga kelishidagi o‘rni tahlil etildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. «Oychinor» dostoni matnining lingvostilistik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek xalq dostonlari tilining sintaktik-stilistik va matniy imkoniyatlari ko‘lamining qay darajada ekanligini aniqlashga asos bo‘lishi ishning ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari kelajakda o‘zbek xalq dostonlari matnida foydalanilgan til materiali ko‘lamini belgilashga, dostonlar matnini lingvostilistik usulda o‘rganishning muayyan yo‘llarini ko‘rsatib berishga xizmat qilishi, o‘zbek

lingvofolkloristikasiga oid monografiyalar yaratilishida manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuzaga kelgan ilmiy-faktik materialdan o'zbek tilshunosligining uslubshunoslik, nutq madaniyati, badiiy matnning lingvistik tahlili va boshqa sohalariga oid tanlanma kurslar, seminarlar tashkil qilish va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanmalari va materiallari yaratish ko'zda tutiladi.

Tadqiqot obyekti. Qodir baxshi tomonidan kuylangan «Oychinor» dostonining G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti chop etgan 1984-yilgi nashri asos qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasi va tadqiq usullari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni yanada chuqur o'rganish va ona tilimizning ravnaqi borasidagi qarashlari tadqiqotning metodologik asosi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, V.Vinogradov, A.Yefimov, M.Kojina, R.G.Piotrovskiy, R.Qo'ng'urov, Y.Tojiyev, E.Begmatov, B.O'rinboyev, M.Mukarramov, A.Mamajonov, E.Qilichev, B.Yo'ldoshev, I.Mirzayev, S.Rizayev, S.Karimov va boshqa olimlarning matni lingvostilistik va lingvostatistik yo'nalishda o'rganish sohasida olib borgan ishlari ham tadqiqot uchun nazariy manba vazifasini bajardi.

Dissertatsiya oldiga qo'yilgan masalalar tavsifiy, qiyosiy va stilistik metodlar asosida o'rganildi, o'zni bilan statistik-leksikografik metoddan ham foydalanildi.

Tadqiqotning sinovdan o'tishi va joriylanishi. Mavzu doirasida 2015 va 2016-yillarda Samarqand davlat universiteti talabalarining an'anaviy konferensiyalarida ma'ruzalar qilingan hamda maqolalar yozilgan va to'plamlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 138 sahifani tashkil etadi. Ishning ilova qismida doston matni asosida tuzilgan lug'at berildi.

KIRISH

O‘zbek xalq dostonchiligi tarixida alohida o‘rin tutadigan Qodir baxshining asl ismi Abdi Rahmonovdir. Qodir baxshi 1937-yilning 16-aprelida Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Chalka qishlog‘ida tug‘ilgan. Avtohalokat sabab bo‘lib, 1986-yilning 29-avgustida 49 yoshida olamdan o‘tgan. Qodir baxshining o‘g‘li Qahhor baxshi otasining so‘nggi kunlari haqida xotiralarida shunday yozadi: *«Qiziq ekan bu dunyoning ishlari, Kuzdan ketib, bahor qaytar qishlari Navbat kelmas ekan qari yoshlari Qari yoshga, yosh qariga mehmondir. ...Baxshi-shoirlar bashoratgo‘y bo‘ladi deyishadi, ehtimol bu gapda jon bordir. Balki davrug‘i olamga taralgan Qodir baxshi ushbu misralarni tizganida o‘zining ham bu ko‘hna dunyoga mehmon ekanini, umr o‘tkinchiligini muxlislariga ayon etgandir. Otam bilan qay to‘yga bormaylik, to‘ylar to‘ylarga ulanardi, Qodir baxshi keldi deb yig‘ilganlar ko‘payib ketardi. O‘sha kuni otam meni va shogirdi Boborayim akani to‘yda qoldirib o‘zi yurtga qaytdi. Cho‘ldagi bir xonadonga va‘da bergan edilar. Ertasiga bilsam, ustozim, ham padarim otaginam, ko‘z qiymas do‘stining mashinasida halokatga uchragan ekan»*. Mana qariyb qirq yildirki, u baxshilarning sardori, tug‘lik tepasining sayroq tili bo‘lib yashamoqda.

Dostonchilik san‘atini rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun unga 2001-yilda «O‘zbekiston xalq baxshisi» faxriy unvoni berilgan.

Janubiy O‘zbekiston hududida yashagan va hozir ham yashab ijod qilayotgan baxshilar Sherobod dostonchilik maktabiga mansub. Qodir baxshi ham ana shu maktabning yirik vakili sanaladi. Baxshichilik sa‘natini dastlab bobosi Turdi baxshidan o‘rgangan, keyinchalik Umir shoir Safar o‘g‘liga shogird tushgan. Buxoro pedagogika institutini tugatgan (1966).

18 yoshida mustaqil dostonchi bo‘lib yetishgan.

Qodir baxshi o‘tgan asrning 60-yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo, Tojikiston va Turkmanistonda yashayotgan keksa baxshilar davrasida bo‘lib, ular repertuarini, doston ijro etish mahoratini, do‘mbira chertish san‘atini egallagan. Uning repertuari boy va rang-barang. «Alpomish», «Yodgor», «Kuntug‘mish»,

«Shirin bilan Shakar», «Rustam», «Murodxon», «Yusuf bilan Ahmad», «Yusuf va Zulayho», «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Zaydinoy», «Go‘ro‘g‘li va Yunus pari», «Shahidnoma» singari 70 ga yaqin dostonlar, ko‘plab terma va ertaklarni ijro etgan. Afsuski, u bilgan va aytgan dostonlarning juda oz qismi va bir necha termalar yozib olingan.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasining 11-jildida qayd etilishicha, «Qodir baxshi faqat repertuarining boyligi bilan emas, balki yoqimli, shirador ovozi, ayniqsa, musiqa asboblari yaxshi chala olish iqtidori bilan ajralib turgan. U do‘mbiradan tashqari dutor, rubob, tor, g‘ijjak, qo‘bizda mohirlik bilan kuylar ijro etib, doston yoxud terma aytavergan yo, aksincha, boshqa cholg‘u asboblardagi kuylarni do‘mbirada ijro etgan».²

Qodir baxshi respublika baxshilar ko‘rik tanlovning 5 marta g‘olibi, Moskva (1971), Parij (1974)da o‘tgan xalq og‘zaki ijodkorlari xalqaro kongresslarining laureati bo‘lgan.

Baxshining «Oychinor» (1984), «Jorxun maston» (1989) dostonlari, «Norguloy» dostonidan parcha va qator termalari chop etilgan.

«Oychinor» Qodir baxshi poetik mahoratining nodir namunasi sanaladi va uning boshqalarga o‘xshamagan ijodiy va ijro uslubini, o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a singari badiiy tasvir vositalarining original va individual namunalarini o‘zida mujassam etganligi bilan alohida badiiy-estetik qimmat kasb etadi.

Tadqiqotimiz uchun asosiy manba vazifasini o‘tagan doston Abdumo‘min Qahhorov tomonidan yozib olingan va nashrga tayyorlangan.³

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Dostonda rivoyat qilinishicha, qadim zamonlarda Boysun tomonlarda Nazarboy degan xasis boy o‘tgan ekan. Uning Xoliyor degan cho‘poni, Ernazar degan chokari bo‘lgan ekan.

² Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 12 жилдлик, 11-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2005, -Б.37.

³ **Ойчинор.** Айтувчи: Қодир Раҳимов. Ёзиб олувчи ва нашрга тайёрловчи: Абдумўмин Қахҳоров. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984

Xoliyorning Oychinor degan 17 yoshli qizi bo'lib, Xudo hamma husnini unga bergan edi. Qarib qolgan boy Alami degan joyda qo'y boqar, qiz esa otasiga ko'maklashib yurar edi.

Kunlardan bir kun buloq boshiga borayotganida ayiqqa duch kelib qoladi. Ayiqning tajovuzidan uni Ernazar qutqaradi. Chapdastlik bilan ayiqni o'ldirgan Ernazar ilk bor Oychinorga duch keladi va uning husniga oshiq bo'ladi.

Tasodifan duch kelib qolgan Nazarboy ham Oychinorga oshiq bo'ladi. Oqamon va Oltiyor oqsoqollarni sovchi qilib yuboradi. Nazarboydan Oychinorga sovchi kelgach, nima qilishini bilmay, Xolyor bobo va Oyto'ti momo garang bo'lib qolishadi. Shunda Oychinor tashabbusni o'z qo'liga oladi. Aqlliligini namoyish etib, sovchilarga muloyim javob qiladi va ularning oldiga malikalarga xos ramziy ma'nodagi o'z shartlarini qo'yadi. Qaliniga o'nta qo'zi, yigirmata bo'ri, ikki o'n besh arslon, qirqta qoplon, ellikta ayg'ir, oltmish beshta axta ot, saksonta sarka, to'qsonta taxta so'raydi.

Nazarboy bu shartlarni bajarish yo'lini axtarib, cho'l-u sahrolarni kezadi. Bobir shohga duch keladi va yordam so'raydi. Bor haqiqatni bilib olgan shoh uni omon qoldiradi va mulozimlariga uni mehmon qilishni buyuradi. O'ng qo'l vazir Qaysarбек olib ketadi.

Qaysarбек ham Oychinorga ega bo'lish qasdigacha tushadi. Qizni olib kelish uchun Keldiyor va Berdiyord degan navkarlarini Nazarboyga qo'shib jo'natadi. Jallodlar qarshilik bildirgan onasi Oyto'tini chopib tashlab, Oychinorni bir kechada Qaysarбекning oldiga olib borishadi.

Ertalab Nazarboy Bobir shoh huzurida bo'ldi, undan ijozat so'rab kelgan yo'liga qaytdi. Kelib, mollarini Xolyordan qaytarib oldi, boshqa cho'ponga berdi. Ayolidan, farzandidan ayrilgan Xolyor qizini izlab, boshi oqqan tomonga ketdi.

Bobir shohning vaziri Qaysarбек yashirincha Shayboniyxonga ham xizmat qilardi. Uning tavsiyasi bilan Shayboniyxon Kattapoyga bostirib keladi. Bobir shoh manzilini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Amudaryoning u tomoniga o'tib ketdi.

Qaysarбекning xoinligidan va Bobir shohni tashlab qochmoqchi ekanligidan voqif bo'lgan Oychinor o'zida kuch topadi. Berdiyori va Keldiyorni o'ldiradi. Qaysarбекni otga o'ngarib, Bobir shohning oldiga olib boradi. Bor haqiqatni eshitgan shoh Qaysarбекning boshini oladi. Oychinor bilan aka-singil tutinganini aytib, uni o'zi bilan birga ketishga taklif etadi. Ammo Oychinor otasini topishi va unga xizmat qilishi lozimligini aytib, uzr so'raydi.

Yo'lda Shayboniyxonning navkarlariga duch keldi. Ular bilan jang qildi, yengdi va o'z yo'lida davom etdi. Nazarboyning qishlog'iga keldi, uni tutib o'ldirdi va otasini izlab Tangiharamga ketdi. Otasini topib, diydor ko'rishdi. Otasidan nasil-nasabini, kelib chiqishini surishtirdi. Asli andijonlik ekanligini bildi. Birgalikda onasining qabrini ziyorat qiladi.

Shundan so'ng qarindosh-urug'larini izlab Andijon tomonlarga keladi. Xoliyorning akasi Berdiyorning o'g'li Omonyorga turmushga chiqadi. Farzandlik bo'ladi. Onasining gaplari esiga tushib, ismini Chinorбек qo'yadi. Xalqni Shayboniyxondan himoya qilib, uning navkarlari bilan urushadi va jangda yaralanib olamdan o'tadi.

Oychinorning vasiyatiga ko'ra Omonyor Andijonda qolgan nodir kitoblarni Qambardan olib, Amudaryo ortiga – Bobir shohga jo'natadi. O'g'li Chinorбекni ham shohning qo'liga tarbiyalash uchun topshiradi.

Mahzun bir holatda yakunini topgan doston xotimasidagi ishonch bilan aytgan:

Chinorбек ham ulg'ayib,

Katta botir bo'lbedi,

Sarkarda bo'lganini

Qodir shoir ko'rbedi. (127)

tarzida ishonch bilan aytgan qo'shig'i qalblarni larzaga soladi. Dostonni tinglagan kishi yoki o'qigan o'quvchi Qodir baxshi badiiy tafakkuri ko'lami, poetik olamining nechog'lik keng ekanligiga tasannolar aytadi. Shu sababdan «Oychinor»ni lingvistik tahlil etish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga egadir.

Birinchi bob

«OYCHINOR» DOSTONINING LEKSIK-STATISTIK VA MORFOLOGIK- STATISTIK TAHLILI

Ilmiy manbalarda matni lingvostatistik va leksikografik tadqiq etish borasida muayyan tajribalar to'planganligi qayd etilgan. Ana shunday yirik ilmiy manbalardan biri prof.S.Rizayevning «O'zbek tilining lingvostatistik tadqiqi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi va «O'zbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari» nomli monografik tadqiqoti bo'lib hisoblanadi.⁴ Shuningdek, mazkur masalani yoritishda Z.Hamidovning «Lug'atshunoslik tarixi va qo'lyozma lug'atlar» (Toshkent, 2004) kitobi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu asarlarga tayangan holda aytish mumkinki, turkiy tilshunoslik va o'zbek tilshunosligida lug'at tartib berish an'analari qadimdan, jumladan, XIII-XIV asrlardan buyon davom etib kelmoqda.

Ammo tilshunosligimizda alohida olingan ijodkorlar asarlari matni lug'atini tuzish tajribasi birmuncha keyingi davrlarning mahsulidir. «Navoiy asarlari lug'ati» (Toshkent, 1972) va to'rt jilddan iborat «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» (Toshkent, 1983-1985) kabi lug'atlar shular jumlasidandir. Manbalarda bu tarzdagi fundamental tadqiqotlarning yuzaga kelishida o'ttizga yaqin olimning xizmatlari katta bo'lganligi tilga olinadi⁵.

Bu kabi sermashaqqat ishlar qo'lda bajarilgan. Natijada matn haqidagi statistik ma'lumot to'liq bo'lmagan va olingan natijalar ham yetarli darajada ishonchli bo'lmagan.

Alisher Navoiy asarlari leksikasini lingvostatistik tahlil etgan B.Bafoyev esa shoirning 24 nomda nashr etilgan turkiy asarlari matnida 26035 ta so'z 1378667 marta qo'llanganligini, jumladan, shoir asarlari leksik tarkibida arabcha so'zlar 30,62 % ni, forsha-tojikcha so'zlar 21,8 % ni tashkil qilganligi, shuningdek,

⁴ *Ризаев С.А.* Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006; *Шу муаллиф.* Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи: Д.Д. – Тошкент, 2008. *Ҳамидов З.* Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар, – Тошкент: Адолат, 2004.

⁵ *Каримов С., Ашурова З.* Зулфия асарлари луғатини тузиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. - №6. – Б.71-76.

hindcha va yunoncha soʻzlar, xullas, jami 64,59 % leksika bevosita va bilvosita chetdan oʻzlashtirilganligi, soʻz boyligining 35 % eski umumturkiy soʻzlardan iboratligini aniqlagan va «Alisher Navoiy asarlarida qoʻllangan leksika eski oʻzbek adabiy tilining soʻz boyligini belgilashda boy material beradi. Agar tadqiqotchi leksikografik va statistik metoddan foydalanmaganda edi, bu kabi aniq va asosli xulosalarni bayon etib boʻlmasdi.⁶

S.Rizayevning yuqorida nomi tilga olingan tadqiqotida taʼkidlanishicha, V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, Sh.Shoabdurahmonov, Gʻ.Abdurahmonov, I.Qoʻchqortoyev, B.Bafojev, I.A.Kissen, A.Mamajonov, Sh.Safarov, S.Karimov, B.Yoʻldoshev, S.Muhamedov, S.Otamirzayeva, D.Oʻrinboyeva kabilar oʻzbek tili matnlari yuzasidan lingvostatistik tadqiqotlar olib borishgan.

Konkordans xarakterida boʻlgan R.Qoʻngʻurov va S.Karimovlarning «Zulfiya poeziyasi tilining lugʻati» ana shunday ishlardan biridir.⁷ S.Muhamedovning ««Oʻzbek tilining alfavitli-chastotali lugʻati (gazeta tekstlari asosida)» (T.: «Fan», 1982.), S.Rizayevning «Oʻzbek sovet bolalar adabiyoti tilining chastotali lugʻati» (T.,1980) yuzaga keldi. Keyinchalik bu kabi lugʻatlar tuzish davom ettirildi va bunda kompyuter texnikasi yutuqlaridan foydalanildi. Oʻzbek lugʻatchiligida kompyuterdan foydalanishni birinchi marta 1987-yilda A.Quronbekov amalga oshirdi.⁸ Shunday lugʻat A.Ibrohimov tomonidan tuzildi.⁹ Sh.Maxmatmurodovning «Hamza poetik asarlari tilining lugʻati»,¹⁰ S.Karimov, A.Qarshiyev, G.Isroilovalarning «Abdulla Qahhor asarlari tilining lugʻati» ham shular jumlasidandir.¹¹

S.Rizayevning N.Boʻronov bilan hamkorlikda yaratilgan «Abdulla Qahhor «Sinchalak» povesti tilining chastotali lugʻati»da (1986) oʻzbek badiiy ijodkorlari

⁶ *Бафоев Б.* Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983, -Б.19-20; 154-155.

⁷ *Қўнғуров Р., Каримов С.* Зулфия поэзияси тилининг луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981.

⁸ *Қуронбеков А.* Ҳофиз ғазалиёти лексикасининг маъно структурасини тадқиқ этиш йўсинлари: НД – Тошкент, 1994, 23-б.

⁹ *Иброҳимов А.* Бобур «Девон»и тилидаги ўзлашма лексика. – Тошкент: ТДШИ, 2006.

¹⁰ *Махматмуродов Ш.* Словарь языка поэтических произведений Хамзы. – Тошкент: изд-во литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1989. - С.6.

¹¹ *Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г.* Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат.– Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 434 б.; *Шу муаллифлар.* Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Частотали луғат. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 420 б.; *Шу муаллифлар.* Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Терс луғат. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 423 б.

asarlari matning statistik strukturasi yaratish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlagan. Matnda 10590 ta lug'aviy birlikning (so'zshaklning) matnda 37482 marta qo'llanganligi aniqlangan.

Mana shu tarzda o'zbek xalq dostonlari namunalari ham leksikografik kuzatishlar obyekti bo'la boshladi. Dostonlar matni lingvostatistikasiga bag'ishlangan T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokor, D.O'rinboyeva, U.Umurzoqov, B.Yo'ldoshev, B.O'rinboyev, K.Bozorboyev, N.Xadjimusayeva, G.Jumanazarovalarning kuzatishlari yuzaga keldi.¹²

Bu o'rinda G.Jumanazarovning quyidagi fikrlarini esga olish joiz: «O'zbek lug'atshunosligining tarkibiy qismi sifatida shakllanib kelayotgan yozuvchilik leksikografiyasi lug'atshunosligimizda yangi davr boshlanganligidan dalolat beradi. Yozuvchilik leksikografiyasiga kompyuterning aralashuvi lug'at ma'lumotlarining ishonchli va aniq bo'lishiga xizmat qilmoqda. Lug'atlarga kiritilgan har qanday til birligining tarkibini lingvistik tadqiqotlardan maqsad qilib qo'yilgan vazifalarni jumladan, til va nutq dialektikasi nuqtai nazaridan tahlil etishga maksimal darajadagi sharoit yaratilmoqda. Turli xarakterdagi lug'atlar tuzishga mo'ljallangan kompyuter dasturlari ushbu vazifani bajarish bilan bir qatorda matndagi harflar chastotasi va so'z tarkibida joylashish o'rni, so'zning morfem tarkibidagi ma'noli qismlar, shuningdek, minimal fikrni ifoda etishga mo'ljallangan kichik sintaktik birliklarni ajratish, zarurat tug'ilganda tahlil uchun olingan har qanday lingvistik birlikni matndagi mikroqurshovda ajratib olib berish singari yumushlarni ham ado eta oladiki, bu nafaqat leksikografik, balki har qanday lingvistik kuzatishlarni olib borishda tadqiqotchining yaqin ko'makdoshi bo'la oladi».¹³

¹² *Murzaev T., Eshonqul J., Fidokor S.* «Алпомиш» дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент: ELMUS-PRESS-MEDIA, 2007. - 162 б.; *O'rinboyeva D.* O'zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug'ati. – Тошкент, 2006; *O'rinboyeva D., Umurzoqov U.* O'zbek xalq dostonlari tilining alfavit-chastotali lug'ati. – Тошкент, 2006; *Yo'ldoshev B., O'rinboyeva D.* O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. – Тошкент: O'zME, 2008. - 100 б.; *Urinboeva D.* Dostonlar tiliда frazeologik birliklar // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007, №6. –Б.87-90; *Xadjimusayeva H.* «Орзигул» дostonи тилининг луғати (сўзлик, алфавитли луғат, частотали луғат, терс луғат). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012. – 387 б.; *Jumanazarova G.U.* «Ширин билан Шакар» дostonининг изоҳли луғати. –Тошкент: Фан, 2007. - 50 б.

¹³ *Jumanazarova G.* Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий кутубхонаси» нашриёти, 2012, -Б. 97-98.

Shu paytgacha ham alohida olingan ijodkorlar asarlari matni yuzasidan lingvistik tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Rabg‘uziy, Muhammad Solih, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Yusuf Amiriy, Durbek, Abulg‘ozi Bahodirxon, Umar Boqiy, Muhammad Shaboniy, Muqimiy, Furqat, A.Qodiriy, Cho‘lpon, H.H.Niyoziy, Elbek, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor, K.Yashin, H.Olimjon, Zulfiya, Sh.Rashidov, Shuhrat, Oydin, S.Ahmad, M.Shayxzoda, A.Muxtor, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev kabi ko‘plab shoir va yozuvchilarimizning asarlarini, xalq og‘zaki ijodi namunalarini, jumhuriyatimizda paydo bo‘lgan ilk vaqtli matbuot materiallarini tili va uslubini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud.¹⁴ Ammo hech bir tadqiqotchi tahlil uchun obyekt sifatida olgan bironta til birligini mukammal qamrab olganligini da’vo qilmagan. Shu o‘rinda R.Qo‘ng‘urov va S.Karimovlarning quyidagi mulohazalarini keltirish joizdir: «...badiiy asar tili bo‘yicha tipologik kuzatishlar olib borishda faqat kuzatuvchining intuitsiyasigagina asoslanib qolish yaramaydi. Chunki bunday ishda intuitsiya kuzatuvchi uni xohlaydimi, xohlamaydimi, qat‘iy nazar, subyektivizimga olib borishi, kuzatishlarda bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yishi tabiiy.

Yozuvchining badiiy mahoratini, san’atkorligini aniqlashda ham faqat intuitsiyagagina asoslanish yuqoridagi kamchilikning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ayrim individning o‘z intuitsiyasi asosida olib borgan ishini dengiz qa’ridan mohir javohir teruvchi mehnatiga qiyos qilaylik. U qanchalik mohir bo‘lmasin, dengiz yoki daryo tagidagi javohirning hammasini to‘liq terib ola olmaydi, ko‘ziga ko‘rinib turgan katta-katta javohirlarni terib olsa-da, ko‘pgina mayda javohirlar, ayrim tosh yoki tuproq tagidagi ko‘zga tezdagina tashlana bermaydiganlari qolib ketadi. Ba’zan ana shu nazardan chetda qolgan mayda javohir ko‘zga aniq tashlanib turgan katta-katta javohirdan qimmatliroq, tozaroq bo‘lishi mumkin.

¹⁴ *Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г.* Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б. 6.

Masalaga shu nuqtai nazardan qaralsa, ma'lum bir davrda ijod etgan shoir yoki yozuvchilar guruhining, yo ayrim olingan ijodkorlar asarlari tilining to'liq lug'atini tuzishning ahamiyati qay darajada ekanligini tushunish qiyin bo'lmaydi».¹⁵

Binobarin, matn yuzasidan olib borilgan leksikografik va statistik kuzatishlarga tadqiqotlarning to'laqonli va ishonchli bo'lishiga yordamlashishi mumkin. A.Nurmonov va B.Yo'ldoshevlar esa bu boradagi ishlarning talabga javob bermasligini ta'kidlashadi: «Hozirgi o'zbek adabiy tilining chastotali lug'atini yaratish juda murakkab muammo sanaladi, shuning uchun hozirgi kunga qadar tilimizning to'la chastotali lug'ati yaratilganicha yo'q. Bu muammoni hal qilish uchun eng avvalo umummilliy adabiy tilning barcha asosiy uslublari (ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy, publisistik kabilar)ni, janrlarni (vaqtli matbuot, badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, jonli so'zlashuv tili kabilarni) statistik metodda to'liq o'rganib chiqilishi asosida yuqori chastotali so'zlarni, grammatik formalarni har bir uslub va janr bo'yicha aniqlab olish lozim bo'ladi. Ana shundan keyin o'zbek adabiy tilining to'la chastotali lug'ati tuzish, uning chegarasi, tamoyillari haqida fikr yuritish mumkin», degan mulohazalari ham fikrimizni qo'llab-quvvatlaydi.¹⁶

Biz ham o'zbek xalq dostonlari tilini leksikografik va lingvostatistik tahlil etishga bag'ishlangan ushbu tadqiqotlarga tayangan holda O'zbekiston xalq baxshisi Qodir Rahimov kuylagan va uning tilidan yozib olingan «Oychinor» dostoni matni yuzasidan lingvostatistik kuzatishlar olib borishga urindik.

O'zbek leksikografiyasi va lingvostatistikasi sohalarining tajribalaridan foydalanilgan holda «Oychinor» dostonining lug'ati tuzildi va bunda asarning 1984-yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan chop etilgan matni material vazifasini o'tadi. O'ylaymizki, ushbu lug'at Qodir baxshi ijodiy tafakkuri, badiiy mahorati va tildan foydalanishdagi o'ziga xos uslubi haqida birmuncha to'la va asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

¹⁵ Кўнғуров Р., Каримов С. Зулфия поэзияси тилининг лугати, -Б.5.

¹⁶ Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарк, 2001, -Б.125.

Bugungi texnika asrida kompyuter yordamida lugʻatlar tuzish muammosi osonlik bilan hal etilmoqda. Dostondagi soʻzlar chastotasining va ters holatining berilishi matnni ilmiy tahlil etishga qulayliklar yaratishi shubhasiz. Chunki istalgan lingvistik materialni uning yordamida jamlash va tahlil etish mumkin.

Doston matniga leksikografik ishlov berishda soʻzlar matnda qanday holatda uchragan boʻlsa, lugʻatda shu holatda, yaʼni soʻzshakl holatida keltirildi va shu narsa aniqlandiki, «Oychinor» matnida 2320 ta soʻz 5957 soʻzshaklida 16172 marta qoʻllangan. Bu holatning alfavit tartibida jadvaldagi koʻrinishi quyidagicha:

Doston matnidagi soʻzlar va soʻzshakllarning harflar kesimidagi chastotasi

<i>t/r</i>	<i>alfavit</i>	<i>soʻz</i>	<i>soʻzshakl</i>	<i>t/r</i>	<i>alfavit</i>	<i>soʻz</i>	<i>soʻzshakl</i>
1.	A	107	221	17	П	38	80
2.	Б	203	685	18	P	16	28
3.	B	14	26	19	C	178	363
4	Г	26	75	20	T	252	575
5	Д	62	160	21	У	60	166
6	Е	15	52	22	Ф	13	21
7	Ё	45	113	23	X	45	101
8	Ж	57	123	24	Ч	91	207
9	З	35	59	25	Ш	54	87
10	И	66	152	26	Э	76	179
11	Й	25	83	27	Ю	26	102
12	К	145	505	28	Я	38	54
13	Л	12	25	29	Ў	74	226
14	М	89	179	30	Қ	214	655
15	Н	54	149	31	Ғ	17	27
16	О	105	363	32	Ҳ	68	116
Jami						2320	5957

Tuzilgan alfavitli va ters lugʻatlar va mana shu jadval doston matni yuzasidan olib boriladigan lingvostatistik tadqiqotlar uchun tayanch vazifasini oʻtaydi. Masalan, 1 martadan tortib 100 martagacha va undan ortiq qoʻllanilgan soʻz va soʻz shakllari chastotasini aniqlash mumkin boʻladi. Bu holat quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

<i>t/r</i>	<i>miqdori</i>	<i>so‘zshakl</i>	<i>chastotasi</i>	<i>foizi</i>
1.	100 dan yuqori	8	1325	10 %
2.	10 dan 100 gacha	236	4870	30%
3.	1 dan 10 gacha	5713	9977	60 %
4.	Jami	5957	16172	

Ma’lum bo‘ladiki, 100 martadan ortiq so‘zlar 8 tani tashkil etadi. Ular quyidagilar: *deb* – 232 ta, *bir* – 211 ta, *ham* – 176 ta, *Oychinor* – 164 ta, *bu* – 162 ta, *edi* – 150 ta, *boradi* – 116 ta, *dedi* – 114 ta, jami 1325 ta so‘zshaklni, jami so‘zlarning 10 % ini tashkil qiladi.

Shuningdek, 10 dan 100 gacha bo‘lgan so‘zlar miqdori 135 ta bo‘lib, ularning 236 ta so‘zshakldan iborat va qo‘llanish chastotasi 4870 ni tashkil etadi. 10 tadan 100 gacha qo‘llangan so‘zshakllarning ulushi 30 % ga to‘g‘ri keladi.

Ularning lingvistik birliklar sifatida ko‘rinishi quyidagicha: *bilan* – 99; *endi* – 95; *berdi* – 79; *bo‘lib* – 75; *bor* – 69; *qilib* – 66; *olib* – 64; *shunda* – 62; *ikki* – 61; *Bobir* – 57; *men* – 56; *qoldi* – 56; *ot* – 55; *yo‘q* – 54; *bo‘ldi* – 53; *nima* – 52; *bo‘lsa* – 46; *kelib, shu* – 45; *ketib, Xolyor* – 42; *ne* – 41; *aytdi, hech* – 40; *Nazarboy* – 39; *har* – 38; *ketdi, navkarlar, qarab* – 37; *qiz* – 35; *degan, agar* – 34; *sen* – 33; *kim, Nazar, ustida* – 32; *deydi* – 30, *borib, bo‘p, Qaysar* – 29, *keldi, kun, mening, oq* – 28, *o‘zi* – 27; *Oychinorning, turib, shul* – 26, *oxuva, u, o‘z* – 25; *yoki, kelgan, menga, turibdi* – 24; *Shayboniy, Ernazar* – 23; *berib, uchun, qaradi, hamma* – 22; *boshqa, bunday, senga, chiqib, ekan, o‘tib* – 21; *Bobirning, bobo, boshiga, ish, ketgan, ko‘p, otni, hov, ey* – 20, *meni, so‘z, tarlon, o‘zing* – 19, *vaqt, ming, uni, ustiga, eshitib, o‘tdi* – 18, *bul, bo‘lgan, kishi, aytib, oldi, otam, otdan, ayrildim, tushib, qizim, Shayboniyga, o‘zini, o‘n* – 17; *bedov, bordi, bugun, joyda, joyidan, kelayotir, Keldiyor, ketayotir, Oyto‘ti, Oqamon, tog‘ning, turgan, ul, uning, Xolyorning, Qaysarbek, qo‘liga* – 16, *Berdiyor, bo‘layin, buni, der, yerga, keyin, ko‘zi, ko‘rib, qoshiga, chiqdi* – 15; *bilmay, boy, bunda, javob, joydan, kimga, odam, sizga, tika, tortib, turadi, qancha, qo‘y, chopib, Shayboniyning, shunday, emas, yana, o‘ylab* – 14; *desa, jo‘nadi, kunda, mayli, momo, otini, sababdan, sening, ushlab, Xoliyor, xudo, qayga, qilich, qolgan* – 13; *borar,*

bo'lsin, gapni, yosh, izlab, mendan, nega, oladi, oshiq, seni, solib, so'radi, ustidan, qanday, qizni, qiladi, qo'yib, yuragi – 12; bek, beradi, bilmaydi, bo'lar, gap, goh, yerda, yo, jallod, jonim, yigit, yo'l, molini, oldidan, oradan, sendan, topib, tura, turdi, tushdi, qilgan, qip, quloq, haydab, hayron, edim – 11; aytgan, besh, biri, bolam, borayotir, bo'ladi, bular, desam, ikkovi, ishni, yil, katta, keladi, keng, ko'ngli, ko'rgan, ko'rdi, mol, navkar, Nazarboyga, Nazarboyning, Oychinorni, oltmish, otga, otlar, so'ng, aytayin, usta, qamchi, qani, qora, cho'pon, o'zin – 10 kabi.

Doston matnidagi so'z va so'zshakllarning asosiy qismini, ya'ni 60 % ini 1 martadan 10 martagacha qo'llangan birliklar tashkil etadi. So'zshakl – 5713 ta, chastotasi – 9977 marta.

Bu leksikografik va statistik ma'lumotlarga tayangan holda matndagi so'zlar va so'z shakllarini so'z turkumlariga ajratgan holda chastotasini aniqlash va foizini belgilash mumkin. 135 ta so'z-lexsemaning so'z turkumlariaro taqsimoti quyidagicha:

Ot – 52

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so'z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so'z-shakl</i>
1.	<i>Berdiyot</i>	<i>Berdiyot</i>	27.	<i>yo'l</i>	<i>yo'l</i>
2.	<i>Bobir</i>	<i>Bobir, Bobirning</i>	28.	<i>ish</i>	<i>ish, ishni</i>
3.	<i>Keldiyot</i>	<i>Keldiyot</i>	29.	<i>kishi</i>	<i>kishi</i>
4.	<i>Qaysar</i>	<i>Qaysar, Qaysarbek</i>	30.	<i>ko'z</i>	<i>ko'zi</i>
5.	<i>Nazar boy</i>	<i>Nazar, Nazarboy, Nazarboyga, Nazarboyning</i>	31.	<i>kun</i>	<i>kun, kunda</i>
6.	<i>Oyto'ti</i>	<i>Oyto'ti</i>	32.	<i>ko'ngil</i>	<i>ko'ngli</i>
7.	<i>Oychinor</i>	<i>Oychinor, Oychinorning, Oychinorni</i>	33.	<i>mol</i>	<i>mol, molini</i>
8.	<i>Oqamon</i>	<i>Oqamon</i>	34.	<i>momo</i>	<i>momo</i>
9.	<i>Xolyot</i>	<i>Xolyot, Xolyorning, Xoliyot</i>	35.	<i>navkar</i>	<i>navkar, navkarlar</i>
10.	<i>Shayboniy</i>	<i>Shayboniy, Shayboniyga, Shayboniyning</i>	36.	<i>odam</i>	<i>odam</i>
11.	<i>Ernazar</i>	<i>Ernazar</i>	37.	<i>otam</i>	<i>otam</i>
12.	<i>Tarlon</i>	<i>Tarlon</i>	38.	<i>ot</i>	<i>ot, otga, otdan,</i>

					<i>otini, otlar, otni</i>
13.	<i>bedov</i>	<i>bedov</i>	39.	<i>oshiq</i>	<i>oshiq</i>
14.	<i>bobo</i>	<i>bobo</i>	40.	<i>so‘z</i>	<i>so‘z</i>
15.	<i>boy</i>	<i>boy</i>	41.	<i>tog‘</i>	<i>tog‘ning</i>
16.	<i>bola</i>	<i>bolam</i>	42.	<i>usta</i>	<i>usta</i>
17.	<i>bosh</i>	<i>boshiga</i>	43.	<i>xudo</i>	<i>xudo</i>
18.	<i>vaqt</i>	<i>vaqt</i>	44.	<i>cho‘pon</i>	<i>cho‘pon</i>
19.	<i>gap</i>	<i>gap, gapni</i>	45.	<i>yurak</i>	<i>yuragi</i>
20.	<i>yer</i>	<i>yer, yerga, yerda</i>	46.	<i>qamchi</i>	<i>qamchi</i>
21.	<i>javob</i>	<i>javob</i>	47.	<i>qiz</i>	<i>qiz, qizim, qizni</i>
22.	<i>jallod</i>	<i>jallod</i>	48.	<i>qilich</i>	<i>qilich</i>
23.	<i>joy</i>	<i>joyda, joydan, joyidan</i>	49.	<i>qosh</i>	<i>qoshiga</i>
24.	<i>jon</i>	<i>jonim</i>	50.	<i>qo‘y</i>	<i>qo‘y</i>
25.	<i>yigit</i>	<i>yigit</i>	51.	<i>qo‘l</i>	<i>qo‘liga</i>
26.	<i>yil</i>	<i>yil</i>	52.	<i>quloq</i>	<i>quloq</i>

Fe'l – 31

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>ayrilmoq</i>	<i>ayrildim</i>	17.	<i>olmoq</i>	<i>oladi, oldi, oldidan, olib</i>
2.	<i>aytmoq</i>	<i>aytayin, aytgan, aytdi, aytib</i>	18.	<i>solmoq</i>	<i>solib</i>
3.	<i>bermoq</i>	<i>beradi, berdi, berib</i>	19.	<i>so‘ramoq</i>	<i>so‘radi</i>
4.	<i>bilmoq</i>	<i>bilmay, bilmaydi</i>	20.	<i>tortmoq</i>	<i>tortib</i>
5.	<i>bormoq</i>	<i>bor, boradi, borayotir, borar, bordi, borib</i>	21.	<i>toshmoq</i>	<i>topib</i>
6.	<i>bo‘lmoq</i>	<i>bo‘ladi, bo‘layin, bo‘lar, bo‘lgan, bo‘ldi, bo‘lib, bo‘lsa, bo‘lsin, bo‘p</i>	22.	<i>turmoq</i>	<i>tura, turadi, turgan, turdi, turib, turibdi</i>
7.	<i>demoq</i>	<i>deb, dedi, degan, deydi, der, desa, desam</i>	23.	<i>tushmoq</i>	<i>tushdi, tushib</i>
8.	<i>jo‘namoq</i>	<i>jo‘nadi</i>	24.	<i>chiqmoq</i>	<i>chiqdi, chiqib</i>
9.	<i>izlamoq</i>	<i>izlab</i>	25.	<i>chopmoq</i>	<i>chopib</i>
10.	<i>kelmoq</i>	<i>keladi, kelayotir, kelgan, keldi, kelib</i>	26.	<i>emoq</i>	<i>edi, edim, ekan, emas</i>
11.	<i>ketmoq</i>	<i>ketayotir, ketgan, ketdi, ketib</i>	27.	<i>eshitmoq</i>	<i>eshitib</i>
12.	<i>ko‘rmoq</i>	<i>ko‘rgan, ko‘rdi, ko‘rib</i>	28.	<i>o‘ylamoq</i>	<i>o‘ylab</i>
13.	<i>qaramoq</i>	<i>qarab, qaradi</i>	29.	<i>o‘tmoq</i>	<i>o‘tdi, o‘tib</i>
14.	<i>qilmoq</i>	<i>qiladi, qilgan, qilib, qip</i>	30.	<i>ushlamoq</i>	<i>ushlab</i>
15.	<i>qolmoq</i>	<i>qolgan, qoldi</i>	31.	<i>haydamoq</i>	<i>haydab</i>
16.	<i>qo‘ymoq</i>	<i>qo‘y, qo‘yib</i>			

Olmosh – 15

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>bu</i>	<i>bu, bul, bular, bunda, bunday, buni</i>	9.	<i>shu</i>	<i>shu, shul, shunda, shunday</i>
2.	<i>kim</i>	<i>kim, kimga</i>	10.	<i>o‘z</i>	<i>o‘z, o‘zi, o‘zin, o‘zing, o‘zini</i>
3.	<i>men</i>	<i>men, menga, mendan, meni, mening</i>	11.	<i>hamma</i>	<i>hamma</i>
4.	<i>ne</i>	<i>ne</i>	12.	<i>qayga</i>	<i>qayga</i>
5.	<i>nega</i>	<i>nega</i>	13.	<i>qanday</i>	<i>qanday</i>
6.	<i>nima</i>	<i>nima</i>	14.	<i>qani</i>	<i>qani</i>
7.	<i>sen</i>	<i>sen, senga, sendan, seni, sening, sizga</i>	15.	<i>qancha</i>	<i>qancha</i>
8.	<i>u</i>	<i>u, ul, uni, uning</i>			

Sifat – 6

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>yosh</i>	<i>yosh</i>	4.	<i>ko‘p</i>	<i>ko‘p</i>
2.	<i>katta</i>	<i>katta</i>	5.	<i>oq</i>	<i>oq</i>
3.	<i>keng</i>	<i>keng</i>	6.	<i>qora</i>	<i>qora</i>

Son – 6

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>bash</i>	<i>bash</i>	4.	<i>ming</i>	<i>ming</i>
2.	<i>bir</i>	<i>biri</i>	5.	<i>oltmish</i>	<i>oltmish</i>
3.	<i>ikki</i>	<i>ikki, ikkovi</i>	6.	<i>o‘n</i>	<i>o‘n</i>

Ravish – 7

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>bugun</i>	<i>bugun</i>	5.	<i>tikka</i>	<i>tikka</i>
2.	<i>goh</i>	<i>goh</i>	6.	<i>endi</i>	<i>endi</i>
3.	<i>keyin</i>	<i>keyin</i>	7.	<i>hayron</i>	<i>hayron</i>
4.	<i>so‘ng</i>	<i>so‘ng</i>			

Bog‘lovchi – 2

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>yo</i>	<i>yo</i>	2.	<i>yoki</i>	<i>yoki</i>

Ko‘makchi – 6

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>bilan</i>	<i>bilan</i>	4.	<i>ust</i>	<i>ustiga, ustida, ustidan</i>

2.	<i>oradan</i>	<i>oradan</i>	5.	<i>uchun</i>	<i>uchun</i>
3.	<i>sababdan</i>	<i>sababdan</i>	6.	<i>ham</i>	<i>ham</i>

Yuklama – 2

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>agar</i>	<i>agar</i>	2.	<i>hech</i>	<i>hech</i>

Undov – 3

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>ohuva</i>	<i>ohuva</i>	3.	<i>hov</i>	<i>hov</i>
2.	<i>ey</i>	<i>ey</i>			

Har xil – 5

<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>	<i>t/r</i>	<i>leksema</i>	<i>so‘z-shakl</i>
1.	<i>boshqa</i>	<i>boshqa</i>	4.	<i>yana</i>	<i>yana</i>
2.	<i>yo‘q</i>	<i>yo‘q</i>	5.	<i>har</i>	<i>har</i>
3.	<i>mayli</i>	<i>mayli</i>			

Bu metod yordamida baxshi ijodi uchun xarakterli bo‘lgan lingvistik birliklarni aniqlash va boshqa ijodkorlar matniga qiyoslash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Doston matni morfologik tarkibini tahlil qilishda tuzilgan ters lug‘at ko‘maklashadi. Ters lug‘at yordamida qo‘shimchalarning qo‘llanishidagi quyidagi holatlar aniqlandi:

Kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanish chastotasi

<i>t/r</i>	<i>qo‘shimcha</i>	<i>chastotasi</i>	<i>mazmuni</i>
1.	<i>-ning</i>	210	<i>bevaning, o‘zganing.</i>
2.	<i>-ni, -in</i>	484, 27	<i>jandani, voqeani; qizin, o‘zin</i>
3.	<i>-ga, -ka, -qa, -a</i>	396, 17, 13, 6	<i>tolga, eshikka, qirqqa, tilima</i>
4.	<i>-da</i>	247	<i>turmushda, urushda</i>
5.	<i>-dan</i>	280	<i>podadan, sarkadan</i>

Ot turukumiga oid boshqa qo‘shimchalar chastotasi

<i>t/r</i>	<i>qo‘shimcha</i>	<i>chastotasi</i>	<i>mazmuni</i>
1.	<i>-a</i>	2	Yasovchi, kichraytirish: <i>vayrona, hayrona</i>
2.	<i>-gar</i>	4	Yasovchi: <i>hiylagar, sayilgar</i>
3.	<i>-i</i>	219	3-shaxs egalik ko‘rsatkichi: <i>bedovi, suvi</i>
4.	<i>-ing</i>	85	2-shaxs birlik ko‘rsatkichi: <i>ikkoving, tengging</i>

17.	-lar	823	Ko'plik ko'rsatkichi: <i>qubbalar, jandalar</i>
5.	-lik	25	Mavhum ot yasovchi: <i>kattalik, bachchalik</i>
6.	-lik/lig	11	Mavhum ot yasovchi: <i>aqlliligi, g'o'dirligi</i>
7.	-m	113	1-shaxs birlik ko'rsatkichi: <i>ilojim, qizim</i>
8.	-miz	14	1-shaxs ko'plik ko'rsatkichi: <i>nasibamiz, sovg'amiz</i>
9.	-ngiz	21	2-shaxs ko'plik ko'rsatkichi: <i>oyingiz, boyingiz</i>
10.	-niki	3	Shakl yasovchi, qarashlilik: <i>o'zlarigniki, bizniki</i>
11.	-noma	1	Yasovchi: <i>bobirnoma</i>
12.	-si	68	3-shaxs egalik: <i>zarbasi, kalavasi</i>
13.	-siz	2	2-shaxs ko'plik ko'rsatkichi: <i>joni-dilisiz, ulisiz</i>
14.	-xona	1	Yasovchi: <i>g'amxona</i>
15.	-cha	2	Kichraytirish, erkalash: <i>uzukcha, yigitcha</i>
16.	-chi	14	Yasovchi: <i>kalavachi, kemachi</i>

Fe'l turukumiga oid qo'shimchalar chastotasi

<i>t/r</i>	<i>qo'shimcha</i>	<i>chastotasi</i>	<i>mazmuni</i>
1.	-a	1	Ravishdosh shaklini hosil qiladi: <i>chopa-chopa</i>
2.	-a	21	Fe'l shakli yasovchi: intensivlik, davom etish: <i>bera, yubora</i>
3.	-ay	12	Fe'ning istak maylini hosil qiluvchi: <i>kelay, sozlay</i>
4.	-b	33	Ravishdosh hosil qiluvchi: <i>qadab, haydab</i>
5.	-gan	166	O'tgan zamon ko'rsatkichi: <i>izlagan, taylagan</i>
6.	-gani	17	Ravishdosh yasovchi: <i>sinagani, qaragani</i>
7.	-gin	19	Buyruq mayli shakli: <i>o'ylagin, yig'lamagin</i>
8.	-di	415	Tuslanish ko'rsatkichi: <i>haydadi, ketkazadi</i>
9.	-di+m	58	Tuslovchi va shaxs ko'rsatkichlari: <i>haydadim, bilmadim</i>
10.	-yotir	49	Hozirgi zamon shakli: <i>tegayotir, haydayotir</i>
11.	-y	22	Istak maylining 1-shaxs birligi: <i>aylanay, o'ynay</i>
12.	-ib	308	Ravishdosh hosil qiluvchi: <i>sevib, tuvib</i>
13.	-k	12	2-shaxs ko'plik, birgalik ko'rsatkichi: <i>ushladik, ko'rmadik</i>
14.	-kan	20	Ekan ning qisqargan shakli: <i>shungamikan, bo'ladimikan</i>
15.	-la	3	Yasovchi: <i>tingla, bog'la</i>
16.	-ma	10	Bo'lishsiz shakl: <i>borma, kelma, hayallatma, yaqinlashma</i>
17.	-ma+y	40	Bo'lishsiz shakl va ravish yasovchi: <i>indamay, o'ylamay</i>
18.	-man	83	1-shaxs birlik ko'rsatkichi: <i>kelmoqdaman, yoshdaman</i>

19.	<i>-mas</i>	32	Bo'lishsiz shakl yasovchi: <i>xushlamas, teymas</i>
20.	<i>-miz</i>	20	1-shaxs ko'plik ko'rsatkichi: <i>ekamiz, qilamiz</i>
21.	<i>-moqchi</i>	14	Sifatdosh shakli: <i>ushlamoqchi, qaynamoqchi</i>
22.	<i>-ngiz</i>	17	2-shaxs ko'plik ko'rsatkichi: <i>qilmangiz, turmangiz</i>
23.	<i>-r, -ar</i>	46	Sifatdosh shakli yasovchi: <i>to'kar</i>
24.	<i>-sa</i>	61	Shart mayli 3-shaxs birligi ko'rsatkichi: <i>haydasa, taylasa</i>
25.	<i>-sa+k</i>	5	Shart mayli va 2-shaxs ko'plik, birgalik ko'rsatkichi: <i>tashlasak, gapirsak</i>
26.	<i>-sa+m</i>	32	Istak va 1-shaxs birlik: <i>o'ylasam, ushlasam</i>
27.	<i>-san</i>	60	2-shaxs birlik ko'rsatkichi: <i>kelasan, bilasan</i>
28.	<i>-siz</i>	16	2-shaxs ko'plik ko'rsatkichi: <i>qilasiz, olasiz</i>
29.	<i>-sin</i>	56	Buyruq maylining 3-shaxs birligi ko'rsatkichi: <i>saqlasin, yo'qlasin</i>
30.	<i>-sh</i>	7	Harakat nomi yasovchi: <i>deyish, tanish-bilish</i>

Boshqa so'z turukumlariga oid qo'shimchalar chastotasi

<i>t/r</i>	<i>so'z turkumi</i>	<i>qo'shimcha</i>	<i>chastotasi</i>	<i>mazmuni</i>
1.	Sifat	<i>be-</i>	1	Yasovchi: <i>bexabar</i>
2.	Sifat	<i>-dagi</i>	49	Yasovchi qo'shma affiks: <i>tabladagi, salladagi</i>
3.	Sifat	<i>-day</i>	140	Sifat va ravish yasovchi, o'xshatish shakli: <i>jo'jaday, xo'jaday</i>
4.	Sifat	<i>-li</i>	16	Yasovchi: <i>sallali, egarlovli</i>
5.	Sifat	<i>-siz</i>	10	Sifat va ravish yasovchi: <i>hisobsiz, egasiz</i>
6.	Son	<i>-ta</i>	14	Sanoq sonlardan donalik son hosil qiladigan qo'shimcha: <i>yigirmata, mingta</i>
7.	Olmosh	<i>-dir</i>	25	Gumon, ta'kid ma'nolarini hosil qiladi: <i>qayerdadir, qoradir</i>
8.	Olmosh	<i>-mi</i>	83	So'roq ko'rsatkichi: <i>joyidami, aynidingmi</i>
9.	Ravish	<i>-gacha</i>	4	Ravish yasovchi: <i>chashmiobzanggacha, yozgacha</i>
10.	Ravish	<i>-gina</i>	8	Subyektiv baho shakli: <i>astagina, to'rtovgina</i>
11.	Ravish	<i>-lab</i>	80	Ravish hosil qiluvchi: <i>tebalab, savalab</i>
12.	Ravish	<i>-cha</i>	21	Ravish hosil qiluvchi: <i>qurtligingcha, yotganingcha</i>
13.	Ko'makchi	<i>-la</i>	1	<i>bilan o'rnida: tong-la</i>
14.	Yuklama	<i>-a</i>	9	Taajjub: <i>qarang-a, qilsang-a</i>
15.	Yuklama	<i>-da</i>	39	Ta'kid, to'siqsizlik: <i>qilma-da, bo'lsa-da</i>
16.	Yuklama	<i>-in</i>	56	Ma'no kuchaytiruvchi: <i>qadayin, olovdayin</i>

17.	Yuklama	-ki	3	Ta'kid: <i>ediki, shulki</i>
18.	Yuklama	-ku	7	Ta'kid ma'nosi: <i>bo'libdi-ku, bo'ldi-ku</i>
19.	Yuklama	-u	18	Yuklama, bog'lovchi: <i>mushk-u, mol-u</i>
20.	Yuklama	-chi	3	So'roq, kuchaytiruv: <i>bersang-chi, sen-chi</i>
21.	Yuklama	-ya	16	Taajjub ma'nosi: <i>sabovga-ya, baloga-ya</i>
22.	Taqlidiy so'z	-ta	2	Taqlid so'z ifodasini kuchaytiruvchi va ravish hosil qiluvchi vosita: <i>shartta, cho'rtta</i>

Yuqorida aytilgan fikrlarimizning asosli bo'lishi uchun birgina o'zagi *bor* bo'lgan fe'l shakllarini tahlil qilishga urinib ko'raiz.

«Oychinor» matnida *bor* o'zakli so'zning statistik manzarasi quyidagicha:

- | | |
|--------------------------------------|-------------------------------------|
| 1. BOR 70 24(6) 25(1) 26(1) 27(1) | 11. BORAYOTIR 10 26(1) 53(2) |
| 28(3) 30(1) 32(1) 37(1) 42(6) 43(1) | 61(1) 66(1) 68(1) 109(1) 120(1) |
| 45(1) 46(1) 47(1) 49(2) 50(1) 52(3) | 122(1) 123(1) |
| 58(1) 59(2) 60(1) 64(1) 66(1) 67(3) | 12. BORAYIN 4 58(1) 59(2) 106(1) |
| 71(1) 72(4) 83(1) 84(2) 85(1) 101(1) | 13. BORAYLIK 1 65(1) |
| 103(1) 109(3) 110(1) 113(2) 114(4) | 14. BORAMAN 3 28(1) 119(1) |
| 117(1) 119(5) 120(2) 124(1) | 124(1) |
| 2. BOR-YO'Q 1 35(1) | 15. BORAMIZ 2 67(1) 94(1) |
| 3. BOR-YO'G'INGIZNI 1 41(1) | 16. BORAR 12 39(3) 52(1) 69(1) |
| 4. BORA 3 52(1) 119(1) 120(1) | 88(2) 96(3) 122(1) 124(1) |
| 5. BORAVER 1 28(1) | 17. BORARINI 1 106(1) |
| 6. BORAVERDI 1 29(1) | 18. BORASAN 3 38(1) 46(1) 66(1) |
| 7. BORADI 116 36(9) 38(1) 40(3) | 19. BORGAN 4 28(1) 37(1) 54(1) |
| 48(1) 50(2) 51(11) 52(3) 53(1) 58(1) | 72(1) |
| 59(4) 64(7) 69(7) 70(5) 71(6) 79(1) | 20. BORGANMAN 1 34(1) |
| 87(1) 89(2) 91(2) 93(1) 97(4) 101(1) | 21. BORGIN-U 1 122(1) |
| 102(2) 103(6) 104(1) 105(1) 106(1) | 22. BORGUNINGCHA 1 28(1) |
| 107(3) 109(3) 110(5) 111(4) 117(1) | 23. BORDI 16 26(1) 28(1) 40(1) |
| 118(10) 121(4) 122(1) 125(1) | 46(1) 49(1) 52(1) 53(1) 55(1) 58(1) |
| 8. BORADIGAN 1 100(1) | 67(1) 101(1) 115(1) 116(1) 118(1) |
| 9. BORADIMI 1 65(1) | 119(1) 127(1) |
| 10. BORAYOTGAN 1 28(1) | 24. BORDIM 2 58(1) 114(1) |

25. BORDIR 4 42(2) 44(1) 92(1)
26. BORIB 29 30(2) 39(1) 49(1)
52(1) 53(1) 55(1) 57(1) 58(1) 60(2)
64(1) 65(1) 73(1) 81(1) 101(2) 103(1)
107(1) 109(2) 111(1) 116(1) 117(1)
119(2) 126(1) 127(2)
27. BORIDAN 1 120(1)
28. BORIM 1 84(1)
29. BORIMDAN 2 58(2)
30. BORIMNI 3 30(2) 78(1)
31. BORING 1 63(1)
32. BORINGLAR 2 62(1) 120(1)
33. BORINI 1 120(1)
34. BORISHINI 1 68(1)
35. BORMA 1 120(1)
36. BORMAGIN 1 45(1)
37. BORMAYDI 1 120(1)
38. BORMASANGIZ 1 65(1)
39. BORMI 3 26(1) 34(1) 113(1)
40. BORMI-YO‘QMI 1 114(1)
41. BORMIDI 1 119(1)
42. BORMIKAN 1 27(1)
43. BORMOQChI 1 100(1)
44. BORSA 3 31(1) 44(1) 93(1)
45. BORSAK 1 73(1)
46. BORSAM 2 55(2)
47. BORSAMMI 1 54(1)
48. BORSANG 3 45(1) 85(2)
49. BORSANGIZ 1 100(1)

Ya’ni *bor* o‘zakli so‘z 3 ta (*bor*, *bor-yo‘q*, *bormoq*), so‘zshakl 49 ta bo‘lib, ular matnda 324 marta qo‘llangan. Ularni «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»ga asoslangan holda quyidagi semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1.bor, bordir, bormi, bormikan, borimni, boridan.

Bor. Mustaqil qo‘llangan *bor* so‘zi 70 marta qo‘llanish barobarida bir yo‘nalishda quyidagi ma’nolarda qo‘llangan¹⁷:

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006, -Б. 312-313.

-qo'lda, ixtiyorda yoki umuman voqelikda mavjud bo'lgan; mavjud ma'nosida:

*Jangillida qator-qator tolim bor,
Ishlay bersam, bir yigitcha holim bor,
Xudo bersa, irisqim ham kam emas,
O'zinga yetadigan, shukur, molim bor (42)*

-doston aytish uslubiga mos keladigan rivoyat qilishda *edi* fe'li bilan birgalikda (11 marta): *Qadim o'tgan zamonda Boysin tog'dan tubanda, Hisor tog'ning ostida, Ko'kbuloqning ustida, Kattapay degan havor bor edi (24). Uning olti ming qo'yi, ming tuyasi, ming biyasi, ming g'unoni, ming do'noni, ming eshagi, ming toyxari, ming tovug'i va ming xo'rozi bor edi (24). Ustida ming joyidan yamalغان choponi bor edi (24). To'rtta xotini bo'lib, sakkiz farzandi bor edi (24). Ana shu boyning Xolyor degan cho'poni bo'lib, uning Ernazar degan chokari bor edi (24). Xolyorning peshonasida bir qizi bor edi (24)* kabi.

-*bormoq* fe'lining buyruq shakli bilan shakldoshlikda: *Oychinor o'ylanib: «Bunga bor desam, qo'yni tashlab yo'qolib ketar», – dedi (28). Hulkar momoning qo'liga berib, o'z joyingga bor. (52)*

- *hamma* ma'nosida: *«Bor molimni tortib oladi. Uning ustiga qizimni ham zo'rlab oladi», – deb o'ylab qoldi (32).*

*Bor kemalar yollandi,
Kemalarga joylandi (72).*

-3-shaxs egalik qo'shimchasini olgan otlar bilan «biror narsaga ega» ma'nosidagi tarkibli sifat hosil qiladi:

*O'g'lim bordir, jo'nadi u oshiga,
Qizim bordir, ul ham o'zin ishiga,
Torat suvin ilitgani kishim yo'q,
Ro'zg'or tushdi bobongizning boshiga (42).*

Bor dan keyin kelgan *-dir* mavjudlikni ta'kidlaydi.

-gapda kesim vazifasini bajaradi:

Suvsiz tog'dan oldingizga men keldim,

Qabul qiling sizga aytar arzim bor (42).

Ko'p navkarning ichida

Qassob degan nomi bor (47).

Gapda kesim vazifasini bajarish barobarida she'riy matnlarda radif bo'lib keladi va kuchli tasviriylik vazifasini ham o'z zimmasiga oladi:

Oldingizda izzat ko'rmay qarzim bor,

Bir g'amxona, g'amli bo'lgan tarzim bor (42).

So'z tarkibidagi **o** unlisining o'zaro qofiyalashgan *qarzim* va *tarzim* so'zlaridagi z tovushi bilan uyg'unlik hosil qiladi.

-kim, nima olmoshlari bilan birgalikda kelib, so'roq shaklidagi gap *hech kimi yo'q, hech nimasi yo'q* ma'nosidagi inkor mazmunini ifodalaydi:

Armon bilan boylandi-da, Oychinor,

Bul kechada madad berar kimi bor (50).

Ham enamsan, ham otam,

Sendan boshqa kimim bor,

Sensan yolg'iz suyanchim,

Yurak to'la g'amim bor. (113)

Sardor, o'zing o'ylagin,

Nimasi bor bergani?! (124)

-ibora tarkibida qo'llaniladi va yangi ma'noning ifodalanishiga sabab bo'ladi:

Yuragi bor cho'ponlar,

So'kayotir izidan,

Tezda pana bo'ladi

Ko'rganlarning ko'zidan (64).

-maxsus ohang bilan talaffuz etiladi va so'roq ma'nosini yuzaga keltiradi: – Nechta xotiningiz *bor?* – dedi Bobir (45). Necha farzanding *bor?*–dedi (49). Bu vazifani ko'pincha *-mi* ko'rsatkichi bajaradi:

O'ldirar xanjaring bormi qo'lingda?!

Yurak mulki bu kun bo'ldi vayrona,

*Mendan boshqa ko'rgan bo'lsa yuzingni,
Qolgani bormikan bo'lmay devona?! (27)*

Bu misralarda ham *qarzim bor, tarzim bor* jumlaridagi kabi ifodada Qodir baxshi uslubini bezaydigan musiqiylik va yuksak badiiylik chizgilari mavjud.

Ikkinchi yo'nalishda *marta, da'fa, karra* ma'nolarini anglatgan:

*Yig'ib olsam hushimni
Yana bir bor kelarman,
Hech qilmagan ishimni
Qayta boshdan qilarman (83).*

Yuqorida izohlangan *marta, da'fa, karra* ma'nolari *bora* so'zi bilan ham ifodalangan va *bor-bora* shakldoshligi hosil bo'lgan bo'lishi mumkin edi. Ammo matndagi *bora* elementi bu ma'noda emas, faqatgina *bora bermoq* tarzida ko'makchili fe'l tarkibida qo'llangan: *Enamning otini Oyparcha deydi, huv, ana, qishloqda, bora beringlar* (119).

2.bor-yo'q. Ushbu so'z doston matnida 2 marta qo'llangan. Uning bir ma'nosi «O'zbek tilining izohli lug'ati»dagi *bisotida, ixtiyorida bo'lgan hamma narsa; boylik, bud-shud*¹⁸ mazmuniga to'g'ri keladi: *Yoki bobo, bekdan farmon bo'ldimi, Yo askarlar bor-yo'g'ingizni oldimi* (42). Ammo *Nazarboy Oqbo'z otini minib, eng yaxshi kiyimlarini kiyib, bor-yo'q mo'ylovini burib, tanglayga misqol nosni taylab, Bombir qaydasan, deb jo'nadi* (35) misolidagi *bor-yo'q* ifodalagan mazmun – *bilinar-bilinmas, juda siyrak* mazmuni «Izohli lug'at»da aks etmagan.

3.bormoq. *Bor* o'zakli so'zning asosiy qismi harakat ifodasi bo'lgan *bormoq* mazmunida qo'llangan. Shu bois ushbu so'z ham shakl, ham mazmunan rang-barangdir. Ayrim namunalar keltiramiz: *asta bormoq* (55, 122), *berib bormoq* (109), *bildirmay/bildirmayin bormoq* (60, 62), *boylab bormoq* (100), *bora bermoq* (52), *borguningcha* (28), *borib aytmoq* (60), *borib qolmoq* (52), *bormoq* (49), *botib bormoq* (51), *bo'lib bormoq* (102), *bo'shab bormoq* (51, 88), *yoqib bormoq* (110), *yonib bormoq* (70), *yetib bormoq* (58, 111), *yoshlab bormoq* (36), *izlab bormoq* (59, 106), *kesib bormoq* (64), *ketib bormoq* (52), *kirib bormoq* (28), *ko'nglin*

¹⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. – Тошкент : ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти . -Б. 315.

xushlab bormoq (51), mushtlab bormoq (51), oqib bormoq (103, 110), olaman deb bormoq (45), oldiga bormoq (52), oldinda bormoq (69), olib bormoq/op bormoq (52), otib bormoq (89, 109), oshib bormoq (64), sinib bormoq (71), sochib bormoq (121), sudirashib bormoq (40), sudrab bormoq (50), so'lib bormoq (59), so'rab bormoq (109), taylab bormoq (69, 97, 110), tashlab bormoq (51), ta'zim qilib bormoq (116), tiklab bormoq (110), tilab bormoq (36), tinib bormoq (59), tishlab bormoq (36), tolib bormoq (103), tortib bormoq (89), tuvib bormoq (64), tutab bormoq (59), tushib bormoq (52, 64), to'yib bormoq (107), to'lib bormoq (97), to'lib-toshib bormoq (111), o'ylab bormoq (69), o'ynab bormoq (110), o'tib bormoq (64), ushlab bormoq (36), xursand bo'lib bormoq (102), charchab bormoq (96), chiqib bormoq (26), chopib bormoq (58, 111), shaylab bormoq (97), shoshib bormoq (52), egilib bormoq (39), enib bormoq (66), enkayib bormoq (54), erib bormoq (70), yaqinlashib bormoq (37), yarim kechaga bormoq (67), qayga bormoq (55), qarab bormoq (69), qizib bormoq (96), qistab bormoq (79), qichab bormoq (101), qop bormoq (69), qochib bormoq (121, 125), qoshiga bormoq (53), qo'yib bormoq (107), qurib bormoq (88, 124), qo'liga bormoq (127), qo'shib bormoq (52), haydab bormoq (94, 124), hurkib bormoq (64) kabi.

Bu kabi fe'lli birikmalarning qo'llanishi o'zbek tili uchun xos xususiyat. Ammo ularning asosiy qismi o'zbek adabiy tili me'yorlariga mos kelishidan tashqari, ayrimlari mos kelmaydi. Bu mos kelmaslik doston tilida fe'lli birikmalarning dialektal ko'rinishlarini qo'llashga yo'l qo'yilishi bilan izohlanadi: *op bormoq (52), sudirashib bormoq (40), taylab bormoq (69, 97, 110), tilab bormoq (36), tuvib bormoq (64), enkayib bormoq (54), qichab bormoq (101), qop bormoq (69)* kabi. Bu dialektal elementlarning bir qismini fonetik o'zgarishlarga uchragan so'zlar (*op-olib, sudirashib-sudrashib, taylab-tashlab, tuvib-tug'ib, enkayib-egilib, qop-qolib*) bo'lsa, ikkinchi bir qismi dialektal-leksik sinonim yoki variantlardir (*tilamoq-so'ramoq, qichamoq-qistamoq, enmoq-pastga tushmoq*) singari.

Ular orasida xalq dostonchiligi uslubiga va Qodir baxshi uslubiga xos fe'lli birikmalar ham bor. Masalan, xalq dostonlari tilida faol qo'llaniladigan birikmalar:

to 'lib-toshib bormoq (111), enib bormoq (66), enkayib bormoq (54), qizib bormoq (96), qistab bormoq (79), qichab bormoq (101), qoshiga bormoq (53). Namuna sifatida *to 'lib-toshib* li birikmani keltiramiz:

«Oychinor»da:

*Shul bo 'lmasin otasi,
Yiqilganda teragi,
To 'lib-toshib boradi
Oychinorning yuragi (111).*

«Malika ayyor»da:

*Ko 'p devlarning aqli shoshib,
Yurar yo 'lidan adashib,
Murdalarga g 'ajir tushib.
Qalandarlar **to 'lib-toshib**,
Devlar bilan ko 'p savashib (149)
O 'lik qoldi ayqashib,
Devlar qo 'rqib ha-halashib,
G 'irotni qistay berdi,
Xon Qalandar **to 'lib-toshib** (166)*

«Xoldorxon»da:

*Ha-halashib boradi,
To 'lib-toshib boradi,
O 'n ming odam qoshida,
Kuyib-pishib boradi (50).*

Qodir baxshi tilida *bormoq* fe'li yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, faqat qo'llanish chastotasi yoki ma'no ko'lamining kengligi bilan emas, balki qo'llanish uslubidagi o'ziga xoslik bilan ham xarakterlanadi. Bu o'ziga xoslik ravishdoshning *-b(-ib)* shakli + *bormoq* ning birikkan holda qo'llanishida yaqqol seziladi. Masalan,

*Otni toshga yetaklab,
Asta **olib boradi**.
Boquvdagi bedov ot*

Olib ketib boradi,
Nazarbekning aqili,
Gohda shoshib boradi.
Bedov otning jilovin
Mahkam ushlab boradi,
Bul ishiga hayron bo‘p,
Labin tishlab boradi.
Hurkmasin deb xudodan
Umrin tilab boradi,
O‘lmayin bu cho‘lda, deb
Ko‘zin yoshlab boradi.
Shunday qilib bu Nazar
Asta ketib boradi (36) kabi.

O‘tgan zamonda bajarilgan harakatning ravishdosh shakli+fe’lning kelasi zamon shakli qurilmasida berilishi ifodaga ravonlik bag‘ishlaydi. Misralarning 4+3 tarzida qisqa bo‘g‘inlardan iboratligi obraz harakatidagi shiddatni ifodalashga xizmat qiladi. Demak, ravonlik va shiddat ifodasi uyg‘unligi bevosita *-b(-ib)* yordamida amalga oshganligi haqida xulosa chiqarishimizga asos bor.

Baxshi dostonning boshidan oxirigacha ushbu fe’l shakliga faol murojaat qilgan. Ammo mana bu misralar Qodir baxshining nafaqat o‘z fikrlarini ravon ifodalashning ustasi ekanligi, balki yuksak poetik his-tuyg‘u va nazokat sohibi ekanligining ham yaqqol dalilidir:

Ena desa, yerlar erib boradi,
Ena desa, qorlar erib boradi,
Yig‘layotir, enam deydi mushtipar,
Temir, cho‘yan, toshlar erib boradi (51)

Chunki bu kabi misralar xalq dostonlari matnida kamdan-kam uchraydigan hodisadir. *Bormoq* fe’lining doston matnida 116 marta qo‘llanilgani ham bu so‘zshaklning Qodir baxshi poetik mahoratining namoyishida alohida o‘rin tutishini isbotlaydi.

Doston matnida qo‘llanish chastotasiga ko‘ra *borayotir* shakli ham salmoqli o‘rin tutadi. U 10 marta qo‘llangan. Ushbu shaklning matnda, aniqrog‘i gap tarkibida joylashish o‘rni e‘tiborimizni tortadi:

-so‘zshaklning gap oxirida kelish holati: Yugurib kelib qarasa, bir qiz arqonning ustida, pastdan bir ayiq archaga *chiqib borayotir* (26). «Kemaylar ketay bu joyga», deb *ketib borayotir* (53). «Enamdan-ku, ayrildim, endi otamdan ham ayrildim», – deb ko‘zini yoshlab, manglayiga mushtlab *ketib borayotir* (68). Nechovlar boridan ayrilib yig‘layotir. Nechovlarni *o‘ldirib borayotir* (120). Mana shu tarzda fe‘lning *-ib borayotir* ko‘rinishi doston matnida asosan muallif izohlari tarkibida qo‘llanilgan va u ifodada qipchoq shevasiga xos uslubni eslatadi.

Borayotir enkayib,
Ikki beti zingkeyib (53),
Kelayotir ko‘p lashkar
Bahorning bulutiday,
Borayotir Oychinor
Ko‘ytonning burgutiday (123)

tarzida fe‘l tarkibida uning hozirgi zamon shakli *-yotir* ning qo‘llanishida ikkinchi bir uslubiy imkoniyat yuzaga chiqadi – ifodada qat‘iylik bo‘rtib turadi, harakatdagi ketma-ketlik va izchillik namoyon bo‘ladi. Bu kabi semantik-stilistik ma‘no ottenkalarining *-yotir* elementi yordamida berilishi xalq dostonlari tili uchun xos xususiyatdir.

«Oychinor» matnida fe‘lning zamon shakllari *-(a)di* va *-yotir* ni o‘zaro sinonimik munosabatda olib qarash mumkin:

Borayotir enkayib,
Ikki beti zingkeyib

Misralari tarkibidagi *borayotir* ni *boradi* tarzida qo‘llash mumkin. Shuningdek,

Ena desa, yerlar erib boradi,
Ena desa, qorlar erib boradi.

misralarini ham

Ena desa, yerlar erib borayotir,

Ena desa, qorlar erib borayotir.

tarzida qo'llash mumkin. Ularning qo'llanishida misralar bir bo'g'inga farq qilishini e'tiborga olmaganda o'zaro sinonim elementlar sifatida qarash mumkin. Ammo uslubiy nuqtai nazardan ularning qimmati bir xil emas. Bu notenglikni keyingi misralar qiyosida ko'rish mumkin. Keyingi misralardagi *erib borayotir* da ifoda aniqligi mavjud. Ya'ni, «ona» deyilishi bilan yerlar ham, qorlar ham erib ketaverdi. Birinchi misradagi *erib boradi* ning qo'llanishida bir qadar shartlilik bor, umumiylik va mavhumlik bor. Agar «ona» deyilsa, «ona» deyilganda tabiatning ham junbushga kelishi birmuncha umumiy va, ayni paytda, yuksak badiiy tarzda ifodalangan. Shu ma'noda, birinchi banddagi fe'l shakli umuman poetik talablarga muvofiq kelsa, ikkinchi banddagi qo'llanish birmuncha mubolag'a xarakteriga ega va xalq og'zaki poetik ijodi ifoda uslubiga to'g'ri keladi. Ularning qo'llanishidagi har ikki holatga ham Qodir baxshi poetik mahoratining yuksak namunalari sifatida qarash adashmagan bo'lamiz.

Birgina *bor* o'zakli fe'l tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, lingvistik tadqiqotlar olib borishda statistik-leksikografik usuldan foydalanish, mavzuga oid til materialini bir joyga to'plash orqali kuzatishlar olib borish kelingan xulosalarning birmuncha asosli bo'lishiga ko'maklashadi. Mana shu tarzda har bir til materialini tahlil qilish ularning lingvistik tabiatini va stilistik xususiyatini to'laroq ochishga imkon beradi.

Birinchi bob yuzasidan qisqa xulosalar

Lingvistik tahlil jarayonida leksikografik va statistik metodlarni qo'llash matn tahliliga zamonaviy yondashish natijasidir. Har qanday matnning elektron variantlarini yaratish, ularga tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib kompyuter ishlovini berish, alfavitli, chastotali va ters lug'atlar tuzish lingvistik tadqiqotlarni ilmiy-amaliy asosga qo'yish demakdir. Shu ma'noda Qodir baxshining «Oychinor» dostoni tili va uslubini o'rganishda tahlilning leksikografik-statistik usuliga tayanish chiqarilgan xulosalarning ilmiy jihatdan asosli bo'lishiga ko'maklashadi.

Ikkinchi bob

DOSTONNING LEKSIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

O‘zbek tili o‘zining hozirgi adabiy til darajasiga yetgunga qadar uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligi tilimiz tarixidan ma’lum. Uning shu darajaga yetishida xalq shevalarining, xususan qipchoq shevalarining ta’siri katta bo‘lgan. XX asrning yirik dialektolog olimlari I.I.Zarubin, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, G‘ozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov kabilar o‘zbek shevalarini o‘rganish va guruhlashtirish borasida juda katta ishlarni amalga oshirganlar. Ular bu boradagi tadqiqotlarida bir qator omillar qatorida har bir lahja va shevaning talaffuz me’yorlarini ham e’tiborga olganlar. Jumladan, ana shu prinsipga o‘zbek tilining qipchoq lahjasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda ham rioya qilingan.¹⁹

Qodir baxshi ana shu lahja vakili bo‘lganligi sababli doston tilida unga xos bo‘lgan elementlar yaqqol bilinib turadi. To‘g‘ri, dostonni yozib olgan va nashrga tayyorlagan Abdimo‘min Qahhorov matnni mumkin qadar adabiy til me’yorlariga yaqinlashtirishga intilgan. Ammo asar poetikasi bilan bog‘liq holatlarda bu «adabiylashtirish»ga imkon bo‘lmagan va til birliklarining sheva variantlari saqlab qolingani, ba’zan matn ostida ularning sharhi berilgan.

Qodir baxshi kuylagan «Oychinor» dostonida 16172 marta qo‘llangan 2320 ta so‘z va 5957 so‘zshakl ona tilimizning so‘z fondidan joy olgan. Ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish umumiy til boyligimizning ma’lum qirralarini ochishga ko‘maklashadi.

Ana shu qirralarni talqin etish maqsadida «Oychinor» dostoni matnidagi 10 martadan ko‘p qo‘llangan 250 ga yaqin lug‘aviy birlikni ajratib olindi va ular quyidagi guruhlarga ajratildi:

1. Tilimizda keng iste’molda bo‘lib kelayotgan so‘zlar.

-otlar:

¹⁹ Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. Дарслик. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004, -Б. 31.

a) narsa-hodisa nomlari: *bedov, bek, bobo, boy, bola, bosh, vaqt, gap, yer, yosh, javob, jallod, joy, jon, yigit, yil, yo'l, ish, kishi, ko'z, kun, ko'ngil, mol, momo, navkar, odam, ot, ota, oshiq, so'z, tog', usta, xudo, cho'pon, yurak, qamchi, qiz, qilich, qosh, qo'l, quloq;*

b) kishi nomlari: *Begali, Berdi, Berdiyoy qassob, Bobir shoh, Go'ro'g'li, Keldiyoy navkar, Nazarboy, Oysuluv, Oyto'ti, Oychinor, Oysha pari, Rustam Doston, Xoliyoy, Ernazar, Oyparcha, Oltiyoy sovchi, Omonyoy, Oqamon sovchi, Samandar, Temurlang, Usta Sayxan, Chinorbek, Choriyoy, Shayboniyxon, Qaysarбек, Qambar, Hulkar momo;*

v) joy nomlari: *Alami, Amu, Angor, Andijon, Darband daryo, Boboxon, Boysun, Jangilli, Jilg'asoy, Kattapoy, Ko'kbuloq, Ko'hi Qof, Oqrabot, Regar, Saynoq, Sayrob, Tangiharam, Termiz, Tolli, Xo'ton, Chashmiobzan, Sherobod, Sho'rob, Qiziriq, Qo'yton (Ko'yton), G'ulg'ula, Hazrati Ali, Hisor;*

g) hayvon nomlari: *Oqbo'z ot (chovkar, ko'k), Tarlon bo'z;*

-fe'llar: *ayrilmoq, aytmoq, bermoq, bilmoq, bormoq, bo'lmoq, demoq, jo'namoq, izlamoq, kelmoq, ketmoq, ko'rmoq, olmoq, solmoq, so'ramoq, topmoq, tortmoq, turmoq, tushmoq, ushlamoq, chiqmoq, chopmoq, yemoq, eshitmoq, o'ylamoq, o'tmoq, qaramoq, qilmoq, qolmoq, qo'ymoq, haydamoq;*

-sifatlar: *katta, keng, oq, tik, qora;*

-sonlar: *besh, bir, ikki, ming, oltmish, o'n;*

-olmoshlar: *bu, bunda, kim, men, ne, nega, nima, sen, siz, u, shu, o'z, qay, qanday, qani, qancha, hamma, har;*

-boshqa so'z turkumlari: *agar, bilan, bor, boshqa, bugun, bunday, goh, yo, yoki, yo'q, keyin, ko'p, mayli, old, ora, oxuva, sabab, so'ng, ust, uchun, shunda, shunday, ey, endi, yana, hayron, ham, hech, hov.*

2. Dialektal so'zlar: *bo'ktar, zingkaymoq, zombir, illa, kamik, ko'lik, piroq, tani, toyxar, to'dana, tuyur, chakamiq, chapar, chibich, chiriylamoq, shobir, qo'riq, havor, hamil kabi.*

Dostonda qo'llangan umumiste'molda bo'lgan ayrim so'zlarni tahlil qilishga urinib ko'ramiz. Doston matnidagi 50 martadan ziyod qo'llangan quyidagi 19 ta

so‘z – *deb* (346), *bir* (211), *bormoq* (185), *ham* (176), *bu* (162), *edi* (150), *bo‘lmoq* (128), *bilan* (99), *endi* (95), *bermoq* (83), *qilmoq* (66), *olmoq* (64), *shunda* (62), *ikki* (61), *men* (56), *qolmoq* (56), *ot* (55), *yo‘q* (54), *nima* (52) umumiste‘moldagi birliklarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular semantik-stilistik jihatdan alohida ajralib turmaydi. Ammo doston matni qurilishida va xalq og‘zaki ijodi namunalarining uslubi haqida muayyan xulosalarga kelishga imkon beradi. Masalan,

-**deb** elementini olaylik. Doston aytish jarayonida baxshining o‘z nutqida o‘zgalarning gaplarini qo‘llashga katta ehtiyoj sezadi va uning bu birlikka tez-tez murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi: *Chanqovuzning tovushini eshitib: «Bir tomosha qilayin», – deb pusib kelayotgan edi (26). Hozir bo‘lsa moling ketdi, uni izlab boraver», – deb Ernazar ni aldab-suldab jo‘natdi (28).* Shuningdek, boshqalarning gapini berishda baxshilar yana bir jumlani - *bir so‘z deb turibdi* ni ko‘p ishlatadi: *Bir vaqt xayoli joyiga kelib, nos otib, kayfini chog‘lab, Xolyorning bo‘sag‘asiga kelib, Oychinorga qarab, bir so‘z deb turibdi:*

*Kelganga o‘xshaydi davri-davronim,
Alamida joylashgan-da makonim,
Och yuzingni tanda jonim aylansin,
Uchdi-ketdi, hech qolmadi imonim (29).*

«Meni Ernazar akam tanimasmikin yoki meni mazax qilayotirmi? Ke, men uni mazax qilib bir so‘z aytay?» – deb Ernazarga qarab, bir so‘z deb turibdi:

*Jilg‘asoydir Boboxonning orasi,
Olisdan ko‘rinar Ko‘yton darasi,
Men aslimni cho‘pon senga aytayin,
Ko‘hi Qofda Oysha pari bolasi (27) kabi.*

-**bir**. Doston matnida *bir* so‘zining son ma‘nosida qo‘llanishi uchraydi, ammo u yetakchilik qilmaydi: *To‘rt xotinning bir ko‘ylagi bo‘lib, eshikka chiqqisi kelgan xotin uni kiyar edi (24). Boy bir yil mol boqtirib, ikkalasiga bir yarim qo‘y enchiga berar, agar qo‘ylaridan birontasi o‘lsa, uni ham bermay qo‘yar edi (24). Xolyorning peshonasida bir qizi bor edi (24) kabi.* Bu so‘zning doston matnida

nihoyatda faolligiga sabab uning miqdorni ifodalash doirasidan chiqib, qo‘shimcha semantik-stilistik ma‘nolar anglatishidir. Miqdorning noaniqligini ifodalash, bu ma‘noni bo‘rttirib, kuchaytirib ko‘rsatish, ta‘kidlash, harakatning belgisini bildirish, istak va mo‘ljalga ishora qilish kabilar ana shu qo‘shimcha ma‘nolardir²⁰: **Bir** o‘zi zerikib ketar, shuning uchun archaga halinchak osib, ashula aytib yurar edi (25). **Bir** to‘dana tol kerak-a, oxuva, Zahari bor zombirga-ya, oxuva, Shirinshakar bol kerak-a, oxuva (25). Yoki Nazarboyning bularga kuchi yetmaydi deysanmi? Yo‘q, qizim! Ul **bir** joyda o‘tirib turib, hammasini bir zumda toptiradi (34) singari.

-edi, endi, shunda. Doston kuylash barobarida rivoyat qilish usuli matnda *edi* (150), *endi* (95), *shunda* (62) singari elementlarga faol murojaat qilishni taqozo etadi. Shu sababdan «Oychinor»da ham bu so‘zlarning qo‘llanish chastotasi yuqori. Aynan *qolib edi*, *bo‘lib edi*, *ko‘rib edi*, *haydab edi*, *turib edi* singari qo‘llanish shakllari o‘zbek xalq dostonchiligida qipchoq shevalari ruhining kuchliligini ko‘rsatuvchi dalillardir: *Bu gapni Nazarboy eshitib, sholisi suvga ketib, ikki qulog‘i bitib, yo turolmay, yo bir so‘z aytolmay qolib edi* (45)

Qo‘y haydab edi Regardan,
Uzuk olbedi zargardan,
Ot tikka tashlab ketganda,
O‘ldim deb ushlar egardan (48).
Yaqinlash-chi, deb turib edi Oychinor,
Jallod tanasiga qo‘riq soladi (50).

Yoki *endi* ning qo‘llanilishida rivoyat qilish bilan birga baxshining jo‘shishiga, folklorshunoslar tili bilan aytganda «qaynashiga» ham ko‘maklashuvini kuzatish mumkin:

Har bir egni qirday bo‘p,
Endi ketib boradi (122).
Sardori yo‘q navkarlar
Endi qochib boradi (125).

²⁰ Ўзбек тили грамматикаси, I том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975, -Б.312-313.

Qistab Tarlon bo'zini

Endi yetib boradi (111).

-bormoq, bermoq, bo'lmoq, qilmoq, olmoq, qolmoq. Epik asarlar matnida *bormoq (185), bermoq (83), bo'lmoq (128), qilmoq (66), olmoq (64), qolmoq (56)* singari fe'llarning qo'llanilishidagi faollik ularning qo'shma so'zlar tarkibida ko'proq qo'llanilishi bilan izohlanadi. Masalan: *tura berdi. (28), kula berdi. (35), sozlay berdi (35), jo'nay berdi (47), yota berdi. (60), yura berdi. (60), qila berdi. (67), qo'ya berdi. (67), jo'nay berdi. (68), tuza berdi. (72), qura berdi. (72), orta berdi (73), torta berdi (73), boylata berdi. (73), tusha berdi. (73), o'ray berdi (87), hayday berdi (87), qo'rqa berdi (97)* kabi. Yoki *hayron bo'lmoq (27), ovora bo'lmoq (28), kech bo'lmoq (31), ado bo'lmoq (31), rozi bo'lmoq (32), qiyin bo'lmoq (43)* singari.

Misralar tarkibida bu fe'llarning takrorlanib qo'llanishi ularni improvizatsiya jarayonida ritmni va jarangdorlikni ta'minlovchi muhim poetik vositaga aylantiradi:

*Oq ko'ylakda xol **bo'lsa**,*

*Suvsiz qolgan tol **bo'lsa**,*

Endi muncha ezmayin

*Oltmish yashar chol **bo'lsa** (39).*

*Boring ollo yor **bo'lsin**,*

*Pirlar madadkor **bo'lsin**,*

Sizni ko'rdim deganning

*Ikki ko'zi ko'r **bo'lsin** (63).*

Bu poetik ruh Qodir baxshining badiiy mahorati namunasi sifatida hatto nasriy bayonda ham saqlanib qoladi: *Bo'rining ham zo'ri **bo'ldi**, bedov otning teri **bo'ldi**, cho'ponning manglayining sho'ri **bo'ldi**, istagani tog'da yotgan bo'ri **bo'ldi**, – deb Oqamon bilan Oltiyor xoxolashib kula berdi (35)* kabi.

Mana shu tarzda Qodir baxshi ixtiyoridagi har bir til elementi poetik ifodaga bo'ysundirilganini kuzatish mumkin. Masalan, **son** turkumiga oid ayrim misollar tahlili ham buni tasdiqlaydi: *bir, to'rt, oltmish, ming* va hokazo. Dostonning

markaziy obrazlaridan biri Nazar tavsifida ular shunchaki raqam emas, balki badiiy vosita sifatida ishtirok etadi. Nazarboyning ilk tavsifida antiteza usulini qo'llash bilan baxshi u haqda tinglovchida dastlabki tasavvurni uyg'otadi va bunda ijodkorga *ming* soni yordamga keladi: *Nazarboy beadat katta boy edi. Uning olti ming qo'yi, ming tuyasi, ming biyasi, ming g'unoni, ming do'noni, ming eshagi, ming toyxari, ming tovug'i va ming xo'rozi bor edi - O'z mingani otga, ko'chgani eshakka zor edi. Ustida ming joyidan yamalغان choponi bor edi (24)*. Mol-u mulk soni minglab, ayni paytda, chopini ham ming joyidan yamalغان: *ming qo'y, ming tuya, ming biya, ming g'unon, ming do'non, ming eshak, ming toyxar, ming tovug va ming xo'roz – choponida yasa ming yamoq.*

Baxshi uning portretini chizishda davom etadi: *Oltmishdan oshgan edi, tishlari tushgan edi (24)*. *Oltmish – keksalik tasdig'i. Iyagida to'rt tuk soqoli bo'lib, u ham nosga botgan edi. To'rtta xotini bo'lib, sakkiz farzandi bor edi. Cho'ponning haqidan qo'rqib, o'g'illarining barini cho'pon qilib, tuya, biya boqtirib qo'yar edi (24)*. Soqoldagi tuk ham to'rtta, xotin ham to'rtta. Ammo to'rtta xotinga bitta ko'yлак: *To'rt xotinning bir ko'ylagi bo'lib, eshikka chiqqisi kelgan xotin uni kiyar edi. Xulosa: Eng qisqasi, Nazarboy shunday «qo'li ochiq», «saxiy» boy ediki, birovdan qarz olsa, ho'kiz yoki toshbaqa tolga chiquvga berar edi... (24)*

Tinglovchi Nazarboy bilan tanishtirishda qo'llangan sonlar *oltmish* va *to'rt*, *to'rt* va *to'rt*, *to'rt* va *bir* ning o'zaro zidlangan holda qo'llanishi natijasida ifodada erkinlik va bemalollik seziladi. Obrazning kimligini anglashga yumor aralashdi va Nazarboyning tinglovchi osongina va yengil «hazm qiladi», uning ko'z o'ngida boy bo'lishiga qarmasdan, xasis, ayni paytda, o'ziga pishiq bir kimsaning qiyofasi namoyon bo'ladi.

Doston matnidagi **olmoshlar** ham o'zining asosiy vazifasidan tashqari muayyan poetik vazifalarni ado etishga yo'naltirilgan. Masalan, o'zaro sinonimik munosabatda olib qarash mumkin bo'lgan *bir necha* va *necho* olmoshlarining ishlatilishiga ko'z yugurtiramiz. Ularning qo'llanish nisbati 1 va 18:

-bir necha:

*Oy tug‘ar nechadan necha,
Oylar ham qorong‘i kecha,
Ot beli mahkam bog‘landi,
Bilmay qoldi **bir necha** (46).*

-nechov:

*Elning chekkan ohiga
Chidolmadi Oychinor,
Go‘daklar yig‘lashiga
Turolmadi Oychinor.
Nechovlarning molini
Olib ketib boradi,
Nechovlarni qo‘yday qip
Cholib ketib boradi.
Ne go‘daklar ko‘chada
Enajon, deb yig‘ladi,
Ne bir mo‘ysafid chollar
O‘n jonmiz, deb yig‘ladi.
Nechovlarning qizini
Olib qochib boradi,
Nechovlarning molini
Tepib sochib boradi. (121)*

Birinchi parchadagi *bir necha* odamlarning ko‘pchiligiga ishora bor, *nechov* da ham ko‘pchilikka ishora, ham xalq tiliga xos bo‘lgan kuchaytiruv ottenkasi mavjud. Uning qo‘llanishidagi bu xususiyat so‘zga faol murojaat qilishga sabab bo‘lgan va olmosh ifodadagi badiiyatning xalqona bo‘lishiga xizmat qilgan.

Shu o‘rinda parcha tarkibidagi *ne* olmoshining ham emotsional-ekspressiv ma‘no ifodalashga bo‘ysundirilganini ta’kidlash joiz:

*Ne go‘daklar ko‘chada
Enajon, deb yig‘ladi,
Ne bir mo‘ysafid chollar*

O'n jonmiz, deb yig'ladi (121).

Xuddi ana shunday poetik ruhni Qodir baxshi tilida *qayda* olmoshi ham olgan: *osmon qayda, oy qayda:*

*Endi bolam, osmon **qayda**, oy **qayda***

Kambag'alga kulfat tushar har joyda

Attang, qo'sholmadim teng-u to'shingga,

Essiz bolam, yig'laganman ne foyda (31).

Doston matnining semantik strukturasi polisemantik ma'noga ega bo'lgan, sinonimik, antonimik va omonimik munosabatda bo'lgan til birliklari ham bayonning puxta va ta'sirli, ixcham va esda qolarli bo'lishiga xizmat qilgan.

Shu bois endi o'zaro **sinonimik** munosabatda bo'lgan ayrim leksik birliklarga ko'z yugurtiramiz. Masalan: *yurak qalb, dil, ko'ngil, siyna, ko'krak* sinonimik qatorini olaylik. Ularning barchasi doston matnida uchraydi: *yurak* – 8 marta, *ko'ngil* – 6 marta, *dil* – 3 marta, *siyna, ko'rak, qalb* – 1 martadan qo'llangan.

Sinonimik qatordagi *yurak* dominantasi uyadagi boshqa so'zlarga qaraganda ham ko'p, ham mas'uliyat bilan qo'llangan. Masalan, uning yordamida shakllangan *yurak mulki* jumlasini boshqa baxshilar ijodida uchratmadik:

Ko'rganda aqlim bo'ldi hayrona,

***Yurak mulki** bu kun bo'ldi vayrona,*

Mendan boshqa ko'rgan bo'lsa yuzingni,

Qolgani bormikan bo'lmay devona?! (27)

Ko'ngil, ko'kay, bag'ir/bovir so'zlariga ko'proq moyil bo'lgan boshqa baxshi-ijodkorlar tilida *yurak mulki* ga duch kelmaysiz. Bu Qodir baxshi tiliga xos bo'lgan, bir qadar zamonaviylashgan ifoda.

Baxshi Oychinorning chiroyini tasvirlash jarayonida unga oshiq Ernazar ko'zi bilan qaraydi. Bu kabi tavsiflarda *aqldan ozmoq, esdan og'moq, aqlini yo'qotmoq, aqlu hushini yo'qotmoq* singari frazeologik birliklar qo'llanganligiga

duch kelganmiz.²¹ Ayni paytda, Qodir baxshi bosh qahramon tavsifiga o'z ifoda uslubi bilan yondashgan va iboraning *aql hayron bo'ldi* variantini qo'llaydi. Aqli hayronlikning isboti uchun yuragi vayron bo'lganligi aytadi. Ammo obrazlilikning kuchi shu darajadagi, yurakning o'zigina emas, balki uning butun mulki vayron bo'lganligiga e'tiborni qaratadi. Baxshi tavsifida pokiza his-tuyg'ular oshiq yuragining haqiqiy mulkiga aylanadi.

Qodir baxshining quyidagi:

*Sho'robdan burdi otni,
Kattapoy ham ko'rindi,
Ko'rib yurgan elini,
Yuraklari xo'rsindi (103)*

misralari tarkibidagi *yuragi xo'rsinmoq* frazeologik iborasi ham g'oyatda xalqchil, ayni paytda, matnda qahramon ruhiy holatining nihoyatda nozik ifodalagan iboradir. Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»da *yurak* komponentli o'nlab frazeologik iboralar orasida *yuragi xo'rsinmoq* uchramaydi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da *xo'rsinish* ning *xo'rsiniq*, *xo'rsinmoq* shakllari izohi «1. Biror g'am, tashvish va sh.k. tufayli chiqariladigan og'ir nafas, ufurish; xo'rliigi kelib, keskin nafas olish. 2. Biror g'am, tashvish va sh.k. tufayli og'ir nafas chiqarmoq; ufurmoq» tarzida berilgan.²² Necha yillar davomida o'z tug'ilib o'sgan yurtini ko'rmagan Oychinorning sog'inch tuyg'ulari bu ibora yordamida yuksak badiiylik bilan ifodalangan.

Quyidagi *yurak* yordamida yasalgan so'z – *yurakdosh* ham Qodir baxshining tilga bo'lgan yuksak mas'uliyati tasdig'idir:

*Borib otga osildi,
Qurib ketgan madori,
Endi qayga ketdikan,
Yurakdoshi, padari (107).*

²¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978, -Б. 29-30.

²² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008, -Б.438.

O‘zbek tili so‘z yasash tizimida *-dosh* ko‘magida yasalgan *tengdosh*, *izdosh*, *tilakdosh*, *maslakdosh*, ko‘makdosh so‘zlar qatorida *yurakdosh* ham alohida tasviriy ahamiyatga ega va baxshi uni mahorat darajasida qo‘llay olgan.

Berdiyoz va Keldiyoz degan bosqinchi jallodlar Oychinorning onasini o‘ldirib, oyoq-qo‘lini bog‘lab olib ketayotgan holati tasvirida baxshi *yongan yurak* jumlasini ishlatadi:

*Ot hurkkan so‘ng dariyodan kechmaydi,
Qo‘rqqan jallod hech Chinorni yechmaydi,
Oh, deb ketib borar yo‘lda mushtipar,
Yongan yurak suv sepganman o‘chmaydi (52).*

Shoh Bobirning vaziri Qaysarga nisbatan esa *qora yurak* iborasini qo‘llaydi:

*Tushunmadim, bunisi
Nima uchun kerakdir,
Oldimdagi bu vazir
Asl **qora yurakdir** (81).*

Doston matnida *yurakni yaralamoq*, *yuragi g‘amlanmoq*, *yuragi ezilmoq* iboralari ham ifodaning badiiy-estetik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan:

*Olisdagi qoralar,
Dard **yurakni yaralar**,
Og‘zi katta daralar,
Sendan otam o‘tdimi? (108)
Ham enamsan, ham otam,
Sendan boshqa kimim bor,
Sensan yolg‘iz suyanchim,
Yurak to‘la g‘amim bor (113)
Kelgan barcha odamning
Yurak-bag‘ri ezildi,
Ko‘zdan oqqan yoshlari
Munchoqdayin tizildi (126) kabi.*

Shuningdek, doston matnida *yurak* sinonimik qatoridagi *dil* soʻzi *dilga joylamoq, dilgirsimoq, bahri-dili ochilmoq, joni-dil* birliklari, *koʻngil* birligi *koʻngil qoʻymoq, koʻngil – gul, koʻngli toʻq, koʻngli buzilmoq* jumalari tarkibida yoqimli tarzda qoʻllangan va ulardan xalqchilik ruhi sezilib turadi:

Yuk ortilgan tuyalar

Qator-qator tizildi,

Bir xil-bir xil odamning

Koʻngillari buzildi

Baʼzi bir xil odamning

Koʻkraklari yozildi (68) kabi.

Inson ruhiy holatining haqiqiy poetik ifodasi boʻlgan:

Yigʻlamagin, jon qizim,

*Yigʻlamagin, **Chinorim,***

*Sen yigʻlasang, **chokidan***

Soʻkiladi yuragim (113)

misralarida keltirilgan *yurakning chok-chokidan soʻkilishi* nutqimizda tez-tez *yuragi ezilmoq* frazeologik iborasining sinonimidir. Boshqa dostonlarda uning *yurak-bagʻri ezilmoq, bagʻri ezilmoq* shakllari uchraydi: *Ana endi qrimliklar bu soʻzni eshitib, bir xil kam yuraklarining anggʻi uzilib, **yurak-bagʻri ezilib**, boshi gʻuvlab, qulogʻi chuvlab — Qibladan dovur turgan ekan, bizni xudoy urgan ekan, falokat bosib yurgan ekan* (Xoldorxon).

Bolam boʻlsa, buytmas edim, vallamat,

*Shu hasratdan mening **bagʻrim ezildi*** (Xoldorxon) kabi.

Badiiy tasvirlar qiyoslanganda har bir ijodkor – «Xoldorxon» muallifi Ergash Jumanbulbul oʻgʻli ham, Qodir baxshi ham oʻz yoʻlidan borganligi kuzatiladi. Shu bilan birga, Qodir baxshida ruhiy iztiroblar ifodasi badiiy jihatdan kuchli ifodalanganligi bilinib turadi:

*Sen yigʻlasang, **chokidan***

Soʻkiladi yuragim.

Misralar tarkibidagi *chinor* elementining **polisemantik** tarzda qoʻllanilganligi kuzatiladi – ham *Oychinor*, ham *ishongan kishi* maʼnosida. Otaning yuragidan otilib chiqqan bu nido juda ishonarli berilgan.

Qodir baxshi mahorati doirasida soʻzlarning **shakliy oʻxshashligidan** foydalanishdagi ustaligi ham tez-tez koʻzga tashlanadi. Shu maʼnoda, *olmoq* soʻzidagi polisemantik xususiyat ijodkorning chiroyli jumlar tuzishiga koʻmaklashgan: *esiga olmoq – eslamoq, qizini olmoq – uylanmoq:*

*Avlodi past deb esiga **olmadi**,*

*Ulugʻlarning qizlarini **olmadi** (32).*

Dostonda Qodir baxshi ayrim soʻzlar maʼnosidagi **zidlanish** xususiyatidan foydalanganda ham muayyan stilistik maqsadlarni koʻzlagani maʼlum boʻladi. Shu holat, ayniqsa, *oq* va *qora* soʻzlarini qoʻllashda koʻzga tashlanadi. Bir matnning oʻzida antiteza – tazod usulida qoʻllanganda ijodkorning voqelik tasviri va tavsifida kelingan xulosalarning qatʼiy va ishonchli ifodasida koʻmakdosh boʻladi. Epizodlarning birida Bobirshohning vaziri Qaysarbek, navkalari Berdiyori va Keldiyorlarning xiyonati haqida gap boradi. Tutqunlikda boʻlgan Oychinorni Shayboniyga tortiq qilib, panoh topmoqchi boʻlganini sezib turgan qiz keskin qarorga keladi va toʻsatdan ularga hujum qilib, Berdiyori va Keldiyorlarning boshini tanasidan judo qiladi. Qaysarbekni esa Bobirshohning oldiga olib borib, qilmishidan xabardor qilishga ahd qiladi. Mana Qaysarning ahvoli:

Qoʻrqib qolgan Qaysarbek

Ne qilarin bilmaydi,

Endi bildi, bu zaif

Qochgan bilan qoʻymaydi.

Shangʻillaydi qulogʻi,

Oʻlim keldi deganday,

Dirillaydi badani,

Boʻri tortib yeganday.

Ogʻzi qoldi ochilib,

Yalmogʻizning goʻriday,

*Burni ketdi tirishib,
Is bo‘p ketgan mo‘riday.
Sipo edi bu Qaysar,
Kiyinishi xo‘jaday,
Endi qoldi shalvirab,
Suvdan chiqqan jo‘jaday... (75).*

Oychinorning Qaysar haqidagi aytganlari:

*Sirting odam bolasi,
Iching – jayra yo ilon,
Sensan odam olasi,
Nima tirik sen bilan (76).
Xizmat qilib Bobirga,
Berganiga to‘ymading,
Qora ekan qilig‘ing,
Bu qiliqni qo‘ymading (76)*

Qaysar Oychinorga o‘ldirmaslikni so‘rab yalinadi, *jon qizim, qizim jonim,* deb avraydi, nima istasa shuni berishini aytadi. Ammo Oychinorning fikri qat‘iy. Mana shu qat‘iyatni berishda *oq-qora* ziddiyati baxshiga qo‘l keladi: *Ichi qora niyating, O‘lsang-da oq bo‘lmaydi, Sut bilan kirgan narsa Chiriganda ketmaydi (79). Qora ko‘mir qoradir, O‘zing oq qil, ko‘rayin, Bu qilichni kasov qil, So‘ngra men tan berayin (79).*

Umuman, bu ikki so‘z doston matnida nafaqat badiiy tasvirga, ayni paytda, baxshi ruhiy olamining ifodasiga xizmat qilganligini kuzatish qiyin emas. Masalan, *oq* yordamida shakllangan *oq o‘tov (35), oq chodir (40), oq tuya (35), oq ko‘ylak (39), oq bo‘z (61), oq bayroq (66), oq salla (75), oq ko‘shk (78)* birikmalarida sof rang ma‘nosida qo‘llanilgan *bo‘lsa, oq qor (70), oq po‘lat (74), oq dovon (103)* jumllarida uning vazifasiga ortgan, o‘z zimmasiga qo‘shimcha vazifa olgan. Masalan,

*Ola tog‘ning boshida,
Oppoq qorlar erisin,*

Mushtiparimni urgan

Zolim qo'ling chirisin (70)

misralari tarkibida kuchaytiruv vazifasini bajargan.

Shu kabi qo'shimcha ma'no ottenkalari *qora* komponentli birikmalarda ham kuzatiladi: *baxti qora (44)*, *fe'li qora (48)*, *qora yer (51)*, *qorangni ko'rmayin (60)*, *qora qiliq (76)*, *ichi qora (79)*, *qora yurak (81)*, *qora nom (124)* kabi. Ularning asosiy qismi xalq tilida faol qo'llanilishi bilan birga, ayrimlari faqat Qodir baxshi uslubiga xosdir:

Xizmat qilib Bobirga,

Berganiga to'ymading,

Qora ekan qilig'ing,

Bu qiliqni qo'ymading (76).

«Oychinor» matnida qo'llanilgan **frazeologik birliklar** xalqchilligi va individualligi bilan badiiy-estetik qimmatga ega. Masalan, xalq orasida qiznikiga sovchilikka kelganlar tilida *qulchilikka kelmoq* iborasi faol qo'llaniladi va qizni kelinlikka so'rashning eng madaniy shakli hisoblanadi. Dostonda ham shu an'anaga rioya qilingan:

O'ylab ko'rsam, ukam, baxting chopibdi,

O'tgan kecha xon Nazarbek kelibdi,

Kelganida oy qizingni ko'ribdi,

Qulchilikka bizlar keldik, Xoliyor (32).

Xalq orasidan keng tarqalgan *qovog'ini uymoq* frazeologik iborasining dialektal shakli *qobog'ini chitmoq* dan foydalanilgan: *Qoshini kerib, qobog'ini chitib* Nazarboyga qarab: - *Hov, Nazar, endi shunday qilasan, mendan kechka kechasi ikki yigitni olasan, birovga bildirmay borasan, qizning kapasini ko'rsatib berasan, yigitlar qizni olib keladi (46).*

Shuningdek, xalq tilidagi *erish tuyulmoq* iborasini baxshi *erish bilinmoq* shaklida qo'llagan: *Oychinor bu so'zlarni eshitib, hayron bo'lib: «Bu kimga aytyapti, nega bunday sandiroqlab qoldi», deb Nazarning gapini o'zicha nodonlik bilib, mo'ysafidning bunday aytib turgani erish bilinib, kulib yubordi (30).*

Xalq tilidagi *nog'orasiga o'ynamoq, childirmasiga o'ynamoq* iboralarining sinonimii sifatida *toriga o'ynamoq* iborasini qo'llaydi va bu qo'llash baxshi uchun poetik jihatdan qulaylik yaratadi – vazn yaxlitligi va ifoda ravonligi ta'minlanadi:

Hormang, deb kelayotir

Nazar nonin yeganlar,

Hol-ahvol so'rayotir

Toriga o'ynaganlar (56).

Qipchoq sheva vakillari tilida qorinni zo'rg'a to'ydiradigan yegulikka nisbatan *o'lmas ovqat* iborasini ishlatiladi. Bu ibora doston matnida ham uchraydi: *Boy bir yil mol boqtirib, ikkalasiga bir yarim qo'y enchiga berar, agar qo'ylaridan birontasi o'lsa, uni ham bermay qo'yar edi. O'lmas ovqat berib qo'y boqtirib yurar edi* (24).

Ma'nosi tilimizda uchraydigan *esidan ozmoq, esidan og'moq, hushidan ketmoq, hushidan og'moq* iboralariga mos keladigan *sholisi suvga ketmoq* iborasini ishlatadi: *Bu gapni Nazarboy eshitib, sholisi suvga ketib, ikki qulog'i bitib, yo turolmay, yo bir so'z aytolmay qolib edi* (45). Boshqa bir o'rinda *bir amallamoq, bir ilojini qilmoq* iboralariga sinonim bo'lishi mumkin bo'lgan *it amal qilmoq* iborasini qo'llaydi: *Goh toqqa chiqib, goh pastga tushib, ko'rgan kishisidan surishtirib, it amal qilib kunini o'tkazib yura berdi* (60). Uning ma'nosi *it yotish, mirza turish* iborasining mazmuniga ham mos keladi. Bu holatlar Qodir baxshi poetik tafakkuri ko'lamining naqadar kengligi, xalq tili boyligini naqadar chuqur bilishini ko'rsatuvchi yorqin dalillardir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, doston matni **qipchoq dialekti elementlari** faolligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, doston matnining og'zaki ijrosi bilan bog'liq ravishda til elementlarining sheva variantlari saqlab qolingani. Bunga quyidagi holatlar sababchi bo'lgan:

1. Misralarda vaznning bir xilligini saqlab qolish maqsadida quyidagi **dialektal-fonetik vositalar**ga murojaat qilingan:

-**proteza** hodisasiga amal qilingan – so'z boshida bir tovush orttirilgan: *risq* – *irisqi*:

*Ishlay bersam, bir yigitcha holim bor,
Xudo bersa, **irisqim** ham kam emas (42).*

Risq soʻzining irisqi tarzida talaffuz etilishi bilan nutqiy qulaylikka va misra ravonligiga erishilgan;

*-soʻzning oʻrtasi va oxirida tovushning tushib qolishi – **diereza** hodisasiga amal qilingan: oshalal - oshi halol: Men podalarni topshirib, **oshalal** olib boraman, – dedi (119);*

*-qipchoq lahjasidagi tovush tushishi – **epenteza** hodisasi va buning natijasida qisqaruvning yuz berishi ham doston matnida faol: op – olib, kep – kelib:*

*Mendan nari koʻringan ul toʻbaga,
Oltmish beshta axta **op kep** bogʻlansin (33).*

Epentezaning boshqa lahja va shevalar uchun xos xususiyat boʻlmagan boʻlbedi - boʻlib edi, koʻrbedi - koʻrib edi singari koʻrinishlaridan foydalanilgan:

*Chinorbek ham ulgʻayib,
Katta botir **boʻlbedi** (127).
Sarkarda boʻlganini
Qodir shoir **koʻrbedi** (127).*

2. Ifodada uygʻunlik va ravonlikni saqlab qolish maqsadida:

-talaffuzda tovushlar alternasiyasi, yaʼni fonetik almashinuviga yoʻl qoʻyilgan:

b>p: *toʻba – tepa: Qaysarбек bilan xoʻsh-xoʻshlashib bir **toʻba** bermon oshdi, endi yuragi joylashdi, xoʻrsinib nafas oldi (53).*

q>gʻ: *oʻgʻiday – oʻqiday:*

*Choʻzilib turib joʻnashi
Merganning otgan **oʻgʻiday** (91).*

h>y: *shoh – shoy:*

*Koʻnglingda sen oq baytalning toyisan,
Qishlogʻingning gapga yetar **shoyisan** (44).*

sh>y: *taylamoq – tashlamoq:*

Jana-jana joylardan

*Jorib shaylab boradi,
Nechovini qoniga
Qorib **taylab** boradi (97).*

h>g': *ilg'oqsimoq – ilhaqsimoq: Keldiyor bilan Berdiyorni yuborgandan keyin Qaysarбек: «Bul ishni birov bilmasin-da», deb **ilg'oqsib** yotgan edi (52).* Talaffuzda **h** ning **g'** ga o'tishi, o'z navbatida, **a** ning **o** tarzida talaffuz etilishiga olib kelgan. *Umidvorlik bilan kutuvchi, mushtoq, muntazir* ma'nosidagi *ilhaq* (*ilhaqsimoq, ilhaq bo'lmoq*) so'zi qipchoq lahjasida ishlatiladi, ammo biz o'qigan dostonlar matnida bu so'zni «Oychinor»dan boshqasida uchratmadik. Uning sinonimi sifatida *notinch, bezovta* ma'nosidagi *alag'da* so'zi Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan «Xoldorxon» dostonida bir marta qo'llangan:

*Avaz, qilma mening ko'nglim **alag'da**,
Yoshsan, borib ziyod qilma xavfindi.*

y>j ga o'tishi qipchoq shevalarining asosiy xususiyati sanaladi. Bu holat «Oychinor» matnida ham saqlangan:

*Ko'kda bulut ko'rdi buni, **jiladi**
Baland tog'lar o'pirilib quladi (51).
Ishontirdim, deb Qaysar,
Qiz jonim, deb **jiladi** (78).
Qizjonim, der, qizjonim,
Xo'rsinib **jilayotir** (112).*

Yoki:

*Unday-bunday beklarni
Tikka oti **jaradi** (54) kabi.*

g>k: *betak – tagsiz, tagi past odam:*

*Qarisa odamga aql kelmasmi,
Kelgan bilan bir xil **betak** olmasmi (44).*

- talaffuzda yuz bergan **dissimilyatsiya** hodisasi saqlab qolingan:

r>l: *zarur-zaril: Nazarbek otining qoshiga borib, uzangiga oyog'ini qo'yib, kecha ish ko'rgan emasmi, **zarildan** ot beliga mindi (53).*

Qipchoq lahjasiga xos bo'lgan butun bir so'zning fonetik o'zgarishlar bilan talaffuz qilinishi ham doston matnida aks etgan: *iyartib – ergashtirib*:

*Agar sermasa olar jon,
Iyartib op jo'nadi (47).*

Yoki:

-qichamoq – qistamoq:

*Otni qichab bu Nazar
Asta bordi uyiga,
Qancha o'ylagan bilan,
Yetolmadi o'yiga (55).*

-qaytayin – qanday qilayin:

*Aytmay desam bu ilhom
Aslo qo'ymas qaytayin,
Bunisi tamom bo'ldi,
Boshqa doston aytayin (128).*

Shuningdek, *beriga – bermon, nariga – narmag'an* qo'llanishi ham doston tilida nafaqat sheva elementlari, ayni paytda, ifodadagi tabiiylikni ta'minlovchi lingvistik vositalar sifatida ishtirok etgan:

Qaysarбек bilan xo'sh-xo'shlashib bir to'ba bermon oshdi, endi yuragi joylashdi, xo'rsinib nafas oldi (53).

*O'n to'rt kundan narmag'an
Men ham ishim boshlayman (62) kabi.*

Doston matnida *oxuva* radifli Oychinor tilidan aytilgan qo'shiq bor. Ana shu qo'shiqda *o* unlisining ohangdorligi yaqqol seziladigan o'rinlar uchraydi:

*To'da-to'da qizlarga-ya, oxuva
Bir to'dana tol kerak-a, oxuva,
Zahari bor zombirga-ya, oxuva,
Shirin-shakar bol kerak-a, oxuva.
Bol-bolgina, bolgina-ya, oxuva.
Soy bo'yida tolgina-ya, oxuva,*

*Qizni suluv ko'rsatar-a, oxuva,
O'ng betida xolgina-ya, oxuva.*

Matndagi *tol, bol, xol* uyg'unligi, *a, ya* unlilarining cho'zib aytilishi, *oxuva* so'zining misralar oxirida takrorlanishi matnni doston kuylashga moslashtiruvchi vositalar sifatida kuchli poetik ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, qo'shiqning *oxuva* radifida berilishi Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik uslubiga xos xususiyat sifatida dostonni bezab turadi, uning badiiy-estetik xususiyatini yaqqol namoyish etib turadi.

Doston matni **dialektal-leksik vositalarga** boyligi bilan ham ajralib turadi va bu jihat uning milliyligini, xalqchilligini ta'min etishda xizmat qilgan. Ularning yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi tomonidan izohi berilgan ayrimlarini ko'zdan kechiramiz:

-havor – tekislik:

*Shartta mindi otini,
Chiqdi to'ba-to'baga,
Tiklab-tiklab qaradi,
Havor bilan havorga (104).*

-toyxar – toyi xar – eshak bolasi, xo'tik: *Uning olti ming qo'yi, ming tuyasi, ming biyasi, ming g'unoni, ming do'noni, ming eshagi, ming toyxari, ming tovug'i va ming xo'rozi bor edi (24).*

-to'dana - tug'dona – tol va boshqa shu xildagi daraxtlar yog'ochidan tayyorlanadigan taqinchoq: *Xudo hamma husnni unga bergan edi. Qaddi-qomati husniga mos tushgan edi, chakkasidagi kokili egnidan oshgan edi. Eshikka chiqsa, uning husniga mast bo'lib, so'fito'rg'ay, kaklik, bo'dana – jami qushlar beadat sayrashar edi. «Qizimga ko'z tegmasin», deb sochbog'iga to'dana taqib qo'yar edi. (24-25)*

-zombir – qovoqari:

*Bir to'dana tol kerak-a, oxuva,
Zahari bor zombirga-ya, oxuva (25)*

-piroq – uchqur ot:

Yo'l tanobin tortgan bedov piroqdir,

Yigitning yo'ldoshi qo'lda yaroqdir (33).

-chibich – bir yoshli uloq: *Yuk ortiladigan yoki qishloq orasida miniladigan ot. Olib kelsin yana sakson sarkani Bul sarkalar bir chibichga kerakdir (33).*

-ko'lik – ulov: *Ellikta ayg'ir – bu bo'ladi: minsang – ko'lik, sotsang – pul, oltmish beshta axta, bu yer haydasa ham, sotsa ham bo'laveradi (34).*

-tani - hech ham:

Tani bukilmasin, bobo, bo'yingiz,

Buzilmasin, obod bo'lsin uyingiz (41).

-shobir - shovqin-suron: *Xolyor suvi to'kilgan meshday shobirsiz joyida yotdi (49).* Ushbu dialektal va folklor asarlariga xos bo'lgan so'z dostonni yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi tomonidan *shovqin-suron* deb izohlanganligini yetarli deb bo'lmaydi. U *shovqin-suron* ga emas, *shovqin* ga to'g'ri kelishi mumkin. Chunki, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da *shovqin-suron* ga: «kuchli darajadagi shovqin», *shovqin* esa «qattiq gap-so'zdan eshitiladigan, shuningdek, turli harkat, hodisalar tufayli yuzaga kelib, qo'shilib ketadigan tovushlar» tarzida izohlangan²³.

-qo'riq - bir uchi halqa qilingan arqon:

To'ti momo hayron bo'lib turadi.

Sherigi qo'liga qo'riq oladi (50).

Quyidagi:

Nazar ketib boradi

Ichi tushgan tarvuzday.

Borayotir enkayib,

Ikki beti zingkayib (53).

parchasidagi **zingkayib** so'ziga yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi «Bu misra «Ot ustida zingkayib» bo'lishi kerak, deb yozadi. Enkaygan odamning zingkayishi

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Беш жилдли. Тўртинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008, -Б.589.

mumkin emas. Baxshi dostonni aytib berganda, shu o'rinda mutanosiblikni buzgan» tarzida izoh beradi.

Bu izohga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki misrani

Borayotir enkayib,

Ot ustida zinkayib

tarzida qo'llashda ham yozib oluvchi ta'kidlagan «mutanosiblik buziladi». Agar *zingkaymoq* ning ma'nosi «qaqqayib», «tik turib»²⁴ yoki «qaqqayib», «qururug'», «to'ppa-to'g'ri»²⁵ bo'lsa, *enkaymoq* ning ma'nosi bu so'zga butunlay zid. Odamning ot ustida bir vaqtning o'zida ham enkayib, ham qaqqayib borishi mumkin bo'lmaydi. Shunday ekan, *Ot ustida zinkayib* bu o'rinda to'g'ri kelmaydi. Baxshining

Borayotir enkayib,

Ikki beti zingayib

tarzida qo'llaganligini ma'lum ma'noda ma'qullash mumkin. Podshohning oldidan eson-omon chiqqan Nazarboyning holati ayanchli: qo'rqqanidan rangi oqarib – bo'zarib ketgan, xuddi ichi tushgan tarvuzga o'xshaydi, manglayi tirishgan, qovoqlari shishgan va hokazo. Shu bois, otning ustida ham qaddini tik tutib o'tira olgan emas – *engkaygan, egilgan*. Misra tarkibidagi *zingkaymoq* ni bu o'rinda yuzning oqarib ketganligining davomi sifatida – *qotib qolganlik* ma'nosida tushunish to'g'ri bo'ladi. Chunki, yuqoridagi izohlarda shu ma'no ham bor.

-tuyur – bo'lak:

Qaysar degani o'lsin,

Bir tuyur non bermadi (54).

-illa – arang, bir balo qilib:

Illa qutulib keldim

Men ularning qo'lidan (57).

-chakamiq – o'simlik nomi:

Tikka chiqqan qulog'i

²⁴ Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи. – Тошкент: Шарқ, 1998, -Б.398.

²⁵ Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент: Elmus-Press-media, -Б.42.

Jardagi chakamiqday (63).

Atamaning qanday o'simlik nomi ekanligi «Botanik terminlar lug'ati»da quyidagicha izohlangan: *chakamig'* – soyabonguldoshlar oilasiga mansub, voqa va adirlarda o'sadigan bir yillik o't o'simlik; *chakamiq* – ro'yandoshlar oilasiga mansub, adir, tog' va vohalarda o'sadigan bir yillik o't o'simlik.²⁶

-kamik - it chaynab tashlagan suyak:

Burnining g'o'dirligi

It tashlagan kamikday (64).

Aslida *kamik* ning ma'nosi nashrga tayyorlovchi izohidan biroz bo'lakcha - *it chaynab tashlagan suyak* emas, umuman suyakka daxldor so'z. Momolarimizdan biron kishiga nisbatan *falonchining molini oq kamik qilib yedi*, degan gaplarni eshitganmiz. Shuning uchun so'zning «O'zbek xalq shevalari lug'ati»dagi tayansak bo'ladi: **kəmik**-kamik (Qarmoq) – ko'mik «губчатое костное вещество».²⁷

-chapar - xirmon yanchishda ish hayvoniga bog'lab sudratiladigan maxsus moslama. Bu yerda chang chaqirish uchun sudratilganligi aytilmoqda. *Shayboniy Qaysarning gapi bo'yicha otlarga chaparlarni sudratgan edi. Soy-soyda yigirmata, o'ttizta navkar bo'lib, ot chopib, chapar sudratib, changitib yotgan edi (67).* Boshqa o'zbek xalq dostonlari tilida uchramaydi.

-birovdikka – begonaga:

Birovdikka non desa,

Ayamaydi, so'kadi (84).

Bu shakldagi so'z ham boshqa doston aytuvchilar tilida uchramaydi. Uni improvizatsiya jarayonida *birovga* so'zining o'zgarishga uchragan shakli sifatida talqin etish mumkin.

-hamil – yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi tomonidan *qaddi ma'nosida* deb e'tiborsizlik bilan izohlangan. Chunki odam yotgan joyida qaddini rostlay olmaydi:

Yotgan joyda Oychinor

²⁶ Тожибоев Ш., Улуков, Рахимова Н. Ботаник терминлар луғати. – Наманган: Наманган, 2014. -Б.223.

²⁷ Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971, -Б.140.

***Hamilini** rosladi (126).*

Soʻzning maʼnosi bunday: **həmil** – hamil (Qashqadaryo) – *yongʻoq magʻzining mayiz bilan aralashtirib ipga tuzilgani* «связка на нитке ореховых ядер и кишмиша».²⁸ Demak, Oychinor yotgan joyida qaddini emas, balki taqinchogʻini rostlagan.

-chiriylamoq:

Oldin kelgan vaqtimda,

Boshqa choʻpon boqardi,

*Echkilarni **chiriylab**,*

Boshqa xotin sogʻardi?! (105)

Chiriylamoq – chorvadorlar hayoti va chorva mollari bilan, xususan echkilarga murojaat qilish bilan bogʻliq soʻz. Echkini sogʻish paytida uni tinchlantirish uchun shu soʻz, xuddi chaqaloqni allalagandagi kabi aytib turiladi. Bu soʻz bilan qipchoq shevalarida echkiga nisbatan ishlatiladigan **chibich**-chibich. Olti oylikdan bir yoshgacha boʻlgan echki, **chigi-chigi**-chigi-chigi. Echkilarni chaqirish uchun ishlatiladigan undov, **chə-chə**-cha-cha. Echkilarni haydash va qaytarish uchun ishlatiladigan undov soʻzlar oʻrtasida bogʻliqliklar bor.²⁹

-barmoshoq - bosh barmoq: *Xolyor bobo biron narsa demadi. **Barmoshogʻini** tishlab, oʻylab qoldi-da, «hay attang-a!» dedi (31).*

-yuzi – uchi, tigʻi:

Olmos, poʻlat qilichlar

***Yuzi** keyin burildi (97).*

Baʼzi oʻrinlarda yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi izohlarining meʼyorga yetmaganligini kuzatamiz. Masalan, **pitik bitmay** - *bitadigan ish bitmay* tarzida izohlangan:

***Pitik bitmay** kishi xotin olmaydi,*

Teshik munchoq hech ham yerda qolmaydi (43).

²⁸ Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971, -Б.285.

²⁹ Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил комуси. – Тошкент: Академнашр, 2012, -Б.230.

Qipchoq shevalarida uning ma'nosi biroz boshqacha, ya'ni *pitik bitmay* – agar taqdirga, peshonaga bitilmasa ma'nosida qo'llaniladi. Shu ma'noda bitadigan ishi bitmasdan turib, kishi xotin olmaydi, deyish to'g'ri bo'lmaydi.

- **bo'ktar** – bo'ktarilgan:

Tog' boshida bo'ktar qor,

Kuygan yig'lar zor-u zor (107).

So'zga berilgan ushbu izoh yetarli emas. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da *bo'ktarmoq* so'zining ma'nosi: 1. *Egar orqasiga bo'ktargi bog'lamoq.* 2. *Yumaloqlab o'ramoq* tarzida berilgan.³⁰ Mana shu izohlar asosida *Tog' boshida bo'ktar qor* misrasini *Tog'ning boshi qor bilan o'ralgan, qoplangan* ma'nosida tushunish to'g'ri bo'ladi.

Ikkinchi bob yuzasidan qisqa xulosalar

«Oychinor» dostonida matnidani olib tahlil qilingan ayrim leksik-frazeologik birliklar o'zbek xalqi tilining yorqin namunasi bo'lgan epik asarlar, ya'ni o'zbek xalq dostonlari matnida qo'llangan so'zlar ham xalq tili lug'at tarkibining ajralmas qismi hisoblanishini va bu ma'naviy mulk o'zbek umumxalq tilining boyligi sifatida qaralishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, dostonni o'qish jarayonida Qodir baxshining so'zga yuksak mas'uliyat bilan yondashganini, uning badiiy qudratini mahorat bilan namoyish etganligini, ijodkorning poetik tafakkuri g'oyatda keng bo'lganligini va undagi bu salohiyat boshqa o'zbek xalq baxshilarinikiga qaraganda keskin ajralib turganligini ko'rsatadi. Masalaga shu jihatdan qaraganda doston matnidagi til birliklarini ma'lum bir guruhlariga ajratish nisbiydir. Faqatgina ularni o'rganish oson bo'lish uchun shu yo'l tanlandi, xolos. Aslida yaxlit bir matn olib qaralganda ham unda ko'pchilik xalq dostonlarida tez-tez duch kelinadigan qaytariqlarning yo'qligi, shablon jummlarning nihoyatda kamligi kuzatiladi. Kitobxon ko'ziga bo'rtib ko'zga tashlanib turadigan asosiy holat mumkin qadar har bir lingvistik birlikni badiiyatga, estetik zavq bera oladigan vositaga aylantira olganligidadir.

³⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006, -Б.407.

Uchinchi bob

DOSTONNING GRAMMATIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

«Oychinor» dostoni mantining grammatik strukturasi o‘zbek xalq epik asarlari sirasidagi ko‘plab dostonlar matniy tuzilishidan til birliklarining tanlanishi va joylashtirilishi, misralardagi bo‘g‘inlar miqdori, qofiya san’atidan foydalanish usullari kabi bir qator poetik shart-sharoitlar bilan farq qiladi va bu holat, ma’lum ma’noda, Qodir baxshining ona tili boyliklaridan foydalanishdagi o‘ziga xos uslubini belgilaydi. Shu ma’noda dostonning grammatik qurilishini o‘rganish ijodkorning xalq ma’naviy merosidan, jumladan, tildan foydalanishdagi mahoratini, ayni paytda, uning bu merosga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritishga imkon beradi.

Doston matnida yaqqol ko‘zga tashlanadigan holat – bu baxshining doston aytishdagi an’anaviy usullarni chetlab o‘tmaganligidir. Shu bilan birga, aksariyat hollarda dostonning markaziy qahramoni Oychinor obraziga oid sujetni bayon etishda Qodir baxshi o‘ziga xos yo‘ldan borganligi va o‘z uslubini yarata olganligini ham ta’kidlash joiz. Shu bois Qodir baxshining doston kuylash uslubidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlashda aynan ana shu **an’anaviylik va individuallik**ning o‘rnini belgilash ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu bobda tanlangan mavzu talabidan kelib chiqib, doston poetik sintaksisiga, grammatik vositalar stilistikasiga xos bo‘lgan jihatlar xususida mulohaza yuritishga harakat qilindi va bunda, birinchi navbatda, asar badiiyatining shakllanishiga xizmat qilgan tasviriy vositalarga e’tibor qaratildi.

Doston poetik sintaksisida muhim o‘rin tutadigan va an’anaviylik yaqqol sezilib turadigan tasviriy vositalardan biri **stilistik formulalar** sanaladi.

Stilistik formulalar o‘zbek tilshunosligi va lingvofolkloristikasida tadqiqot obyekti bo‘lgan. Sh.Mahmadiyev «O‘zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.³¹ Olimning

³¹ **Махмадиев Ш.** Ўзбек халқ дostonлари тилида стилстик формулалар: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2007.

ta'kidlashicha, stilistik formulalar «birinchidan, xalq og'zaki ijodining faqat epik janriga tegishli, ikkinchidan, improvizatsiya jarayonida muntazam qo'llanilib, barqarorlik va doimiylik kasb etgan, uchinchidan, an'anaviy xarakterga ega bo'lgan, to'rtinchidan, poetik vosita sanaladigan, beshinchidan, epik asar bayonida hamisha qo'llanishga tayyor holida turgan, oltinchidan, u yoki bu darajada stilistik bo'yoq mavjud bo'lib, faqatgina xalq og'zaki poetik ijodiga xoslangan tasviriy vositadir».³²

Ta'rifdan shu narsa anglashiladiki, bu tipdagi tasviriy vositalar an'anaviylik xarakteriga ega. Shu bois bir epik asarda uchraydigan stilistik formulani boshqa birida ham uchratish mumkin. Masalan:

***Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga,
Nomard chiqolmaydi mardning yo'liga,
Mushtiparman qalinimni aytaman,
Bek bobojon, quloq solgin tilima (33).***

Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga stilistik formulasi Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan «Kuntug'mish» dostoni matnida ham qo'llanilgan:

***Bulbul oshno bular bog'ning guliga,
O'zlaring chorlanglar Zangar yo'liga.
Quloq solgil kanizingning tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga.
Quloq soling menday Mohi tiliga,
Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga kabi.***

Ta'kidlash o'rinliki, «Oychinor» dostonida stilistik formulalarning qo'llanilishi boshqa xalq baxshilari kuylagan dostonlar tilidagi ushbu tasviriy vositalardan ko'ra farqlanadi. Unda an'anaviylik deyarli ko'zga tashlanmaydi, ya'ni bir epik asardan ikkinchisiga ko'chib yuruvchi stilistik formulalardan Qodir baxshi juda kam o'rinlardagina foydalangan. Bu tasviriy vositalar faqat yasalish

³² Махмадиев Ш. Ўзбек халқ дostonлари тилида стилистик формулалар: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2007. -Б.7.

qolipi bilangina bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin. Mazmunan esa ularning aksariyati Qodir baxshi uslubiga xos va faqat mana shu doston matnida uchraydi.

Masalan, Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan «Alpomish», «Balogardon», «Malika ayyor», «Nurali», «Rustamxon» dostonlarida stilistik formulalar tarkibida keladigan *gulday tarzim bor* jumlasini kelgan.

Ayo shohim, sizga aytar arzim bor,
*Olmadayin so'lgan **gulday tarzim bor** («Alpomish»)*
*Olmadayin, so'lgan **gulday tarzim bor,***
Jonim ena, senga aytar arzim bor («Balogardon»)
*Olmadayin so'lgan, **gulday tarzim bor,***
Avaz o'g'lon, senga aytar arzim bor («Malika ayyor»)
*Olmadayin so'lgan **gulday tarzim bor,***
Yosh o'g'lonman, senga aytar arzim bor («Nurali»)
*Oh tortganda mening **so'lgan tarzim bor***
Jonim moma, senga aytar arzim bor («Rustamxon»)

«Oychinor»da inson ruhiy holatining zohiriy ifodasi bo'lgan ushbu jumladan ijodiy foydalanilgan holda original stilistik formulalar yaratilgan. Nazarboy Bobirshohga ilk bor duch kelganida o'zini juda faqir bir inson qilib ko'rsatadi, arzini tinglashni iltimos qiladi:

Oldingizda izzat ko'rmay qarzim bor,
Bir g'amxona, g'amli bo'lgan tarzim bor,
Suvsiz tog'dan oldingizga men keldim,
Qabul qiling sizga aytar arzim bor (42).

Ammo bu stilistik formula misra tarkibida Qodir baxshining shoirlik salohiyatini yorqin namoyish etuvchi vosita sifatida kelgan:

Bir g'amxona, g'amli bo'lgan tarzim bor.

Epik asarlar matnida *g'amli tarz*, *gulday tarz* jumllariga duch kelishimiz mumkin, ammo *tarz* ning *g'amxona* ekanligi hech bir baxshi tilida uchramaydi. Bu o'rinda *xona* so'zi juda kuchli poetik mazmun kasb eta olgan.

«Oychinor» da stilistik formulalarning qo‘llanilishida ularning umumiy matn bilan bog‘liqligiga ko‘ra ikki holat kuzatiladi. Dostondagi epizodlarning birida mol-holini ko‘rib kelishga chiqqan Nazarboy Xoliyor uyining oldidan o‘tayotib, Oychinorni ko‘rib qolganligi va unga oshiq bo‘lganligi epizodini olaylik. Nazarboy qizga qarab quyidagilarni aytadi:

*Savdogarlar qator-qator norini,
Nor ustiga yuklashadi molini,
Uchdi-ketdi, hech qolmadi imonim,
Jahon ko‘rdimikan senday parini.*
*Kakliklar sayrashar tog‘ning ustida,
Bedanalar yo‘rg‘alashar pastida,
Jahon ko‘rdimikan senday parini,
Sen keldingmi ko‘kdan jonim qasdida... (29).*
*Bedovga yarashar oltindan to‘g‘a,
Yigitga orqadir bor bo‘lsa og‘a,
Husningni bir ko‘rgan ming yil o‘lmaydi,
Aziz jonim yurishingga sadag‘a.*
*Yov kelsa botirlar chiqar qal‘adan,
Qo‘rqoq sho‘rni topolmaysan daladan,
Senga topshirayin harna, borimni,
Kovushingni qildirayin tilladan (30).*

Agar misralarni shartli ravishda to‘rtliklarga ajratib tahlil qilsak, ularning birinchi ikki misrasi stilistik formulalarni tashkil etadi: *Savdogarlar qator-qator norini, Nor ustiga yuklashadi molini; Kakliklar sayrashar tog‘ning ustida, Bedanalar yo‘rg‘alashar pastida; Bedovga yarashar oltindan to‘g‘a, Yigitga orqadir bor bo‘lsa og‘a; Yov kelsa botirlar chiqar qal‘adan, Qo‘rqoq sho‘rni topolmaysan daladan* kabi. Bularning hech birining Nazarboy aytgan gapning mazmuniga bog‘lanishligi yo‘q. Ular asosiy fikrlar ifodalangan *Uchdi-ketdi, hech qolmadi imonim, Jahon ko‘rdimikan senday parini; Jahon ko‘rdimikan senday parini, Sen keldingmi ko‘kdan jonim qasdida; Husningni bir ko‘rgan ming yil*

o'lmaydi, Aziz jonim yurishingga sadag'a; Senga topshirayin harna, borimni, Kovushingni qildirayin tilladan misralardagi fikrning daromadi va matn tarkibida nutqiy bezak sifatida ishtirok etgan. Bu – birinchi holat.

Oyto'ti momo Oychinorni Nazarboyning ko'rib qolganligidan afsuslanadi, qizini koyiydi:

***Osmonimni endi bulut bosdimi,
Ko'kdan yashin keng bog'ima tushdimi,
Nega ko'rsatasan qizim yuzingni,
Ollo yoki sening hushing oldimi?! (30)***

deydi. Bu o'rinda misralar orasida, stilistik formula bilan asosiy fikr ifoda etilgan uchinchi va to'rtinchi misralar o'rtasida mazmuniy bog'lanish bor. Oyto'ti momo Nazarboyning Oychinorni ko'rib qolganligini yaxshilikka yo'ymaydi, yomonlikdan darak, deb biladi. Bu noxush manzara osmonni bulut bosganligiga, bog'dagi daraxtlarni yashin urganligiga qiyoslanadi. Bu – ikkinchi holat.

Yana boshqa bir stilistik formulalar qo'llangan misralarda ham fikriy va hissiy bog'lanishlar mavjud:

***Shunqor tepsa, har kim mayib belidan,
Hech kim ayrilmasin o'sgan elidan,
Ikki jallod zarba qilib tortadi,
Ololmaydi Oyto'tining qo'lidan (50).***

Parchadagi stilistik formulalar onaizorning holiga achinish hissini kuchaytiradi.

Voqealar bayonining bir o'rnida ayyor Nazarboy Oychinor solgan qalinni topishga yordam so'rab Bobirshohga murojaat qiladi go'y o'zini unga yaqin qilib ko'rsatadi, *og'a* demoqchi bo'ladi. Ammo jur'at qilolmaydi, haddi sig'maydi. Mana shunday vaziyatda unga daromad tarzida keltirilgan el orasidagi quyma gaplar, ya'ni stilistik formulalar yordamga keladi. Ularning yordamida gapni boshlaydi va asosiy fikrini aytadi – qalin molini topishga yordam berishini so'raydi:

Bedovga yarashar oltindan to'g'a,

Yigitga orqadir gar bo'lsa og'a.

Qalin molin sizdan boshqa topolmas,

Shuytib oldingizga keldim sadag'a (43).

Ammo Nazarboyning makrini payqab qolgan Bobir shoh quyidagicha daromad qiladi:

Mergan haydar otni tog'ning pastidan,

Har kimni saqlasin ajal qastidan,

Avvalasi men gappingga ishondim,

Nega gapirmading, bobo, rostidan?! (43)

deydi.

Aytish mumkinki, Qodir baxshi stilistik formulalarga munosabatda o'ziga xos yo'ldan borgan – xalq orasida mavjud bo'lgan, tayyor vositalardan foydalanishdan ko'ra, mavjud qoliplar asosida o'z tasviriy vositalarini yaratgan va bu bilan o'zbek xalq epik asarlari fondini yangi stilistik formulalar bilan boyitgan.

«Oychinor»da yorqin ko'zga tashlanib turadigan, asar poetikasida sezilarni o'rin egallaydigan grammatik-stilistik vositalardan biri **o'xshatish** vositalaridir. Matn uchun xarakterli jihat shuki, Qodir baxshi o'xshatishning *kabi, singari, yanglig', misoli, bamisoli, misli* singari leksik vositalariga murojaat qilmagan, asosan *-day* vositasidan foydalangan.

O'xshatish usulidan foydalanishda ham ikki holat yaqqol ko'zga tashlanadi – an'anaviylik va individuallik.

An'anaviy o'xshatishlar xalq og'zaki ijodi namunalarida, ayniqsa, dostonlar tilida qadimdan qo'llanilib kelinayotgan tasviriy vositalar bo'lib, ularga Qodir baxshi kam bo'lsa-da, murojaat qilgan. Masalan,

Olmos bilan dur qadayin sochingga,

Besh kun o'tsa menday boyni o'ldi, de! (30).

Bunday paytlarda *-day* o'xshatish vazifasini bajarish doirasidan chiqadi va o'z zimmasiga qo'shimcha stilistik ottenka oladi – ta'kid vazifasini bajaradi.

Mana bu:

Iyartib op jo'nadi,

Nazarboyday beimon (47).

misolida ham ta'kid ottenkasi, ya'ni Nazarboydagi salbiy xususiyat *-day* orqali kuchaytiriladi. Unda ikkinchi stilistik ma'no ottenkasi ham mavjud: Oychinorni vazir Qaysar oldiga olib kelish uchun borayotgan navkarlar – Keldiyor va Berdiyorga yo'l ko'rsatib ketayotgan Nazarboy agar beimonlikda kimgadir o'xshasa, faqat o'ziga o'xshaydi, degan kuchli kinoya ma'nosi ham kelib chiqadi.

Xalq og'zaki poetik ijodiga xos an'anaviy o'xshatishlar tizimida insonlar tabiatidagi yoki tashqi ko'rinishidagi ayrim jihatlarni bo'rttirish maqsadida badiiy tasvir jarayonida yovvoyi va uy hayvonlarga murojaat qilinadi. Masalan, *ajdah*, *sher*, *arslon*, *qoplan* kabi. Bu holat «Oychinor»da ham kuzatiladi: *O'zi polvon siyoqli, burgut qaboqli, har egni qirday, qarashi to'qaydagi sherday. (40)*

Ketayotir Oychinor

Haybati bir sherday bo'p,

Qiz ham bo'lsa har egni

Irkilganda qirday bo'p (87).

Taqim qoqib Oychinor,

Sherday bo'lib tashlandi (95).

Sherga qiyoslash yo'li bilan insondagi kuch-qudrat bo'rttiriladi, mardlik va jasorat ulug'lanadi.

Odamning ajdahoga, arslonga, bo'riga, qoplonga, otga o'xshatilishida ham ijobiy ottenka mavjud:

Qoshida turgan ekan

Ajdahoday bolasi (56).

Oychinorning qilichi

Ajdahoday yamladi (97).

Yigirmada yigit bo'lar bo'riday,

O'ttizida hayqirishi arslonday,

Qirqa borsa, qirqta tog'ni otguday,

Intilishi bo'lmasmikan qoplunday?! (44).

Elligida ayg'ir otday o'ynaydi,

Maydon bo'lsa ne g'animni qiynaydi (44).

Doston qahramonlari obrazini shakllantirishda salbiy ottenkani kuchaytirishga xizmat qiladigan hayvonlarga qiyoslash usulida ham an'anaviylik saqlab qolingan. Yuqorida keltirganimiz – Keldiyor va Berdiyorga yo'l ko'rsatib ketayotgan Nazarboyning harakatiga ham, holatiga ham baxshi ijobiy qaramaydi va *tulki* ga qiyoslanadi:

*Shumpiyib ketib boradi,
Tozidan qochgan **tulki**day (48)*

yoki

***Tulki**dayin jalanglab,
Dumidayin bilanglab,
Kelmasin, deb izimdan
Kelayotir alanglab (54).*

Shuningdek, qilmishi va o'y-xayoli yomonlikdan boshqa narsa bo'lmagan Keldiyor va Berdiyorga navkarlarning qiyofasi ham *qobon*, *g'ajir*, *zombir* singari o'xshatish vositalari yordamida yorqin tasvirlanadi:

*Haydayotir navkarlar
Qopga tiqqan **somonday**,
Qoboqlari uyulgan
Tayoq yegan **qobonday**.
Egarda o'tirishi
To'badagi **g'ajirday**,
Rangi oqarib ketgan
Kulni tashlagan **yerday**.
Gapirganda so'zlari
Bol yo'qotgan **zombirday**.
Ochganida og'zini
Xuddi o'yilgan **go'rday** (63).*

Ammo ta'kidlash joizki, parchada qo'llangan o'xshatishlar shunchaki oddiy qiyoslashlar emas. Ularning zamirida kuchli poetik ifoda yashiringan. Navkarlar

o'ziga bino qo'ygan, kekkaygan odamlar, shuning uchun ularning egarda o'tirishi tepalikda qo'nib tugan g'ajirga qiyoslanadi. Kallasi bo'sh, fikrlash imkoniyatidan mahrum, faqat buyruqni bajaradi, shuning uchun qopga tiqilgan somonga yoki somon tiqilgan qopga o'xshatiladi. Kayfiyatlari yomon, ularning bu holati tayoq yegan itga, qobonga taqqoslanadi. Shunga mos tarzda gaplarining ham tayini yo'q, g'o'ng'illaydi, binobarin, ovozlari zombirnikiday chiqadi. Qiyofalari shu darajada xunukki, og'zi ochilgan paytda ochilgan go'rga o'xshab qoladi.

Doston aytish jarayonida *kiyik, nor, tana (yosh qoramol), chumoli, jo'ja, it, qo'y, qush* singari jonivorlar ham o'xshatish obyekti bo'lgan va tasvirlanayotgan subyektning u yoki bu sifatini, holatini obrazli ifodalashga xizmat qilgan:

-kiyik:

Mergan otgan kiyikday

Ko'zim tinib boradi (59).

-nor:

Mayib norday ingrayman,

Shunqor tepgan belimdan (59).

-tana:

Ketayotir navkarlar

So'na quvgan tanaday,

Orqasida Qaysari

Har baloga panaday (63).

-chumoli, mol:

Ivirsinib jo'nashi

Yerdagi chumoliday,

Yoyilishib yurishi,

Boyning suruv moliday (69).

-qush:

Ilon ovlagan qushday

Darmon ketib boradi (59).

-jo'ja:

*Sipo edi bu Qaysar,
Kiyinishi xo 'jaday,
Endi qoldi shalvirab,
Suvdan chiqqan jo 'jaday (75).*

-it:

Shayboniyning navkarlari itday izg'ishib yuribdi (120).

-qo'y:

*Nechovlarni qo'yday qip
Cholib ketib boradi (121).*

Alohida muhabbat bilan kuylangan Oychinor obrazi esa go'zal tasviriy vositalar bilan bezangan. Bu holatni o'xshatishlarning qo'llanishida ham kuzatamiz:

*Eli uchun Tarlonni
Egarladi Oychinor,
Qiz bo'lsa ham burgutday,
Oraladi Oychinor (121).
Kelayotir ko'p lashkar
Bahorning bulutiday,
Borayotir Oychinor
Qo'ytonning burgutiday (123).*

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qodir baxshi qo'llagan o'xshatishlar faqat o'xshatish obyekti va subyekti nuqtai nazaridan an'anaviy bo'lishi mumkin. Ammo bu usulni qo'llash yordamida olingan natijalar nihoyatda individual va baxshining poetik mahoratini namoyish etib turgan vositalar ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shubhasiz, doston matnidagi o'xshatishlarning asosiy qismi Qodir baxshi individual ijodiy tafakkurining mahsuli va ular impovizatsiya jarayonida yuksak badiiylikni ta'minlashga xizmat qilgan tasviriy vositalardir.

Yana Oychinor tavsifiga qaytamiz. Diydor ko'rishgan ota-bolaning kayfiyati, ayniqsa, Oychinorning quvonchi shu darajada go'zal va quyma

misralarda chizilganki, bu kabi tasvir namunalarini boshqa xalq baxshilarida uchratish qiyin:

Qabatida otasi,
Oyday bo‘ldi Oychinor,
Biyasiga ergashgan
Toyday bo‘ldi Oychinor.
Bo‘stonida ochilgan
Gulday bo‘ldi Oychinor,
Qiz ham bo‘ldi qoplonday,
Ulday bo‘ldi Oychinor.
Totimligi eliga
Tuzday bo‘ldi Oychinor,
Uzuklarga solingan
Ko‘zday bo‘ldi Oychinor.
Yoriqligi yuzining
Kunday bo‘ldi Oychinor,
Munosib qip tikilgan
To‘nday bo‘ldi Oychinor.
Ikkovining ketishi
Bir juft chinor o‘sganday,
Osmonning yulduzlari
Poyondozi bo‘p tushganday (117-118) kabi.

Matnning qat’iy bir maromda kuylanishi, unda *Oychinor* ismining muttasil takrorlanishi tinglovchiga ham, o‘quvchiga ham huzur baxsh etadi. Qodir baxshining betakror misralari hech bir qiyinchiliksiz qalblardan qalblarga ko‘chadi. Bu parchada o‘xshatishlar har bir misraning ustuni vazifasini bajarganini aytsak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunday quyma misralar doston matnida anchagina.

O‘xshatish vositalarining ayrim o‘rinlarda misralar ustuni bo‘lgani haqidagi fikrimizni ularning qofiyalovchi birlik vazifasini o‘tagan parchalar yana bir bor tasdiqlaydi. Doston sujetidagi kulminatsion holat – Oychinorning azob

uqubatlariga sabab bo'lgan munofiqlarning fosh bo'lishi va bosh qahramonning Bobirshoh bilan uchrashuvi finalini eslaylik. Bobirshoh Oychinorga qarata:

*Qiyomatli men akang,
Singlim bo'lgin, Oychinor,
Ham yuragim, ham orqam,
Ko'nglim bo'lgin, Oychinor! (86).*

deydi. Shohning bu so'zlarni nafaqat Oychinorni, balki baxshini ham, dostonni tinglovchi yoki o'quvchini ham to'lqinlantirib yuborishi aniq. Ana endi shunday bir kayfiyatda shoh bilan xayrlashib, yo'lga tushgan Oychinorning ruhiy olami aks etgan quyidagi misralarni tinglagan yoki o'qigan kishi qanday kayfiyatga tushadi:

*Putining orasidan
Yukli tuya o'tguday,
Og'zin ochib pishqirsa,
Ko'kda bulut qochguday (90).
O'mganiga urilsa,
Tog' yorilib ketguday,
Sag'risiga qarasang
Sakkiz kampir yotguday (90).
Quloqning orasiga
Tovushqonlar pusguday,
Ikki burnining dami
Archalarni kesguday (90).
Bosib ketgan iziga
Bir qanor un ketguday,
Qichab turib chuv, desa,
Uchar qushdan o'tguday (90).
Eltak-seltak badani
Chillaning qotgan muziday,
Badandagi oq ko'pik
Turkmaning ola bo'ziday (90).*

Siltanib turib jo 'nashi
Tulkini quvgan toziday,
Kalla chayqab o 'ynashi,
Pora yegan qoziday,
Boylarning erka qiziday,
Badanda temtik xollari
Osmonning ol yulduziday (91).
Quyruqni siltab taylashi
Yaylovdan qaytgan qo 'ziday,
Dilgirsib turib jo 'nashi
Susarning o 'tkir ko 'ziday,
Burilib turib jo 'nashi
O 'qlardan qochgan qulonday,
Bo 'ynining ko 'tarilishi
Pishqirib chopgan ilonday,
Cho 'zilib turib jo 'nashi
Merganning otgan o 'g 'iday,
O 'tib ketgan shamoli
Ko 'mirning o 'tkir cho 'g 'iday (90-91).

Bu misralar shu qadar jo'shqin bir tarzda yaratilganki, tahlilda ularning bir qatorini ham tushirib bo'lmaydi. Misralar tarkibidagi *-day* o'xshatish vositasi ifoda yoki improvizatsiya tizginini qo'lda ushlab turganligini his etmaslik mumkin emas. Ataylab misra oxiriga olingan va qofiya vositasiga aylantirilgan: *o'tguday-qochguday, ketguday-yotguday, pusguday-kesguday, ketguday-o'tguday, muziday-bo'ziday, toziday-qoziday, qiziday-yulduziday, qo'ziday-ko'ziday, qulonday-ilonday, o'g'iday-cho'g'iday* tartibida qofiya tizimini yaratish uchun boshqa bir shoirga ma'lum muddat o'ylash, qofiya axtarish, balki lug'atlar qarashga to'g'ri kelar. Qodir baxshi esa ularni improvizatsiya jarayonida bir shodaga tizyapti, ifodada yaxlit bir uyg'unlikni ta'min etyapti.

Aslida uyg'unlik Oychinorning Bobirshoh bilan xayrlashuv kayfiyati va shundan so'ng ketib borish holatida. Go'yo Oychinordagi ko'tarkinki kayfiyat u mingan oti – Tarlon ko'kka ko'chganday. Egasining kayfiyatini sezgan ot *oyog'ining ostida tuya o'tib ketsa bo'ladi, mobodo og'zini ochib na'ra tortsa, bulutlar qochib ketadi. Shiddat shu darajada zo'rki, agar uning jussasiga tog' kelib urilsa, tog' yorilib ketadi, sag'risi – orqa oyog'ining ustki qismiga sakkiz kishi bemalol joylashishi mumkin. Burnining dami daraxtlarni kesadigan darajada kuchli, chuv desa, qushdan o'zadi, tezligi tozidan kam emas, bu tezlikni merganning o'qiga qiyoslash ham mumkin. Shamoli esa duch kelgan narsani kuydiradigan darajada* va hokazo.

Ijodkorning yuksak iste'dodidan dalolat beruvchi bunday quyma misralar faqat baxshi «qaynagan» vaqtidagina yuzaga kelishi mumkin. Bu kabi original tasvirlarning yuzaga kelishiga xizmat qilgan *-day* vositasida shakllangan o'xshatishlar doston matnida juda ko'p va ularni bemalol Qodir baxshining individual o'xshatishlari deb ayta olamiz.

Dostonni o'qish jarayonida xuddi *-day* ko'rsatkichi singari baxshi ishlatgan har bir grammatik vosita behuda ishlatilmaganligiga, obrazlilik uchun xizmat qilganligiga amin bo'lamiz. Afsuski ularning har birini bir magistrlik dissertatsiyasi hajmida o'rganishning imkoni bo'lmaydi. Egalik ko'rsatkichi *-(i)m* ni olaylik, Ota bilan diydor ko'rishganda yig'isini tiya olmagan Oychinorni ota shunday yupatadi:

*Yig'lamagin, jon qizim,
Yig'lamagin, **Chinorim**,
Sen yig'lasang, chokidan
So'kiladi yuragim (113).*

Onasining qabri ustida iztirob chekayotgan farzandga ota shunday tasalli beradi:

*Yig'lamagin, **Chinorim**,
Kuygan tanam kul qilma,
Endi qo'ngan taqdirni*

Qayta boshdan sho‘r qilma (116).

Tinglash u yoqda tursin, bu misralarni o‘qigan kitobxon ham Oychinor g‘amiga sherik bo‘lib, yig‘lamoqdan o‘zini tiyolmaydi.

Quyidagi:

*Oldingizda izzat ko‘rmay **qarzim** bor,
Bir g‘amxona, g‘amli bo‘lgan **tarzim** bor,
Suvsiz tog‘dan oldingizga men keldim,
Qabul qiling sizga aytar **arzim** bor. (42)*

yoki

*Qiyomatli men akang,
Singlim bo‘lgin, Oychinor,
Ham yuragim, ham orqam,
Ko‘nglim bo‘lgin, Oychinor! (86)*

misralarida ham egalik qo‘shimchasi o‘zining asosiy grammatik vazifasini bajarishdan tashqari ohangdorlikni bir maromda saqlab turishga xizmat qilgan poetik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Qodir baxshi dostonni kuylash jarayonida grammatik birliklar tahlilida ko‘rganimiz kabi har bir tasviriy vositani qo‘llashni san‘at darajasiga ko‘taradi. Shuning uchun, garchi ma‘lum darajada chekinish bo‘lsa-da, doston matnida qo‘llangan mubolog‘a san‘ati va xalq maqollariga qisqacha to‘xtalishni lozim topdik.

Mubolag‘a san‘ati xalq dostonlari uslubiga xos xususiyat. Bu an‘anaviylikdan «Oychinor»da ham chetlab o‘tilgan emas. Lekin Qodir baxshi mubolag‘a san‘atini qo‘llashda o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Masalan, Oychinorning chiroyini ta‘riflab o‘tirmasdan, boshqa bir qahramon – Nazarboyning ilk bor ko‘rishdagi holati orqali baho beradi: *Nazarboy ot ustida kelayotgan edi, Oychinorni ko‘rib qoldi. Rangida rang, tomirida qon qolmadi. Ko‘zlari tinib, boshi aylanib, darmoni ketib, butun dunyo, moli-joni esidan chiqib, otning ustidan ag‘darilib yerga tushdi (29).* Yoki to‘satdan ikkinchi bor Oychinorga duch kelib

qolgan navkarlarning hushi boshidan uchadi: *Avval urushda ko'rgan emasmi, bexosdan duch bo'lganiga olti kun tuz totmay kasal bo'lib qoldi (117).*

Shoh Bobirning salobati ham Nazarboy qarashi orqali beriladi: *Nazar qaradi: Murti shopday, urtlari qopday, turishi burgutday, ko'zi yongan o'tday bir kishi tikilib: – Qani gapir? – deyayotir (37).*

Nazarboydan Oychinor haqida xabar topgan Qaysar Keldiyor va Berdiyordagan navkarlariga boy bilan birga borib qizni olib kelishni buyuradi. Yo'l yurish jarayonida baxshi bu ikki navkarning tavsifini beradi. Ularning topshiriqni bajarishga qay darajada ketib borayotganligi shiddatini berish davomida quyidagi mubolag'alar ishlatiladi:

*Qamchi ustma-ust chatildi,
Tuproq ko'kka otildi,
Ko'kka yetgan tuproqqa
Oyning yuzlari tutildi (48-49).*

Bobir shohning vaziri Qaysar xiyonatkor, u o'z hukmdoriga xoinlik qilib, saltanatdagi sirlarni Bobirshohning dushmani Shayboniyga vaqti-vaqti bilan navkarlari – Berdiyord va Keldiyor orqali yetkazib turadi. Topshiriqni so'zsiz bajarishga odatlangan navkarlarning otlari ham shiddatli. Ana shu shiddatni ko'rsatish uchun ham otlarning harakati mubolag'a qilinadi:

*Javob olib navkarlar
Otga urdi qamchini,
Cho'pchib otdi **bedovlar,**
Olguday Chin-mochinni.
Bosgan yer qolayotir
O'raday bo'p buzilib,
Ketayotir bedovlar
Ipakday bo'p cho'zilib (63)*

Darhaqiqat, Qaysarbek – salbiy obraz. Uning tashqi qiyofasiga ishlatilgan chizgilarda qo'llanilgan mubolag'a undagi salbiylikni kuchaytirishga xizmat qiladi: *ko'zi olaygan, rangidan qoni qochgan, iyagi bilan manglayi tirishib ketgan, nafsi*

kattalik qilib, tishini ham qo‘shib yutgan. Mushtday kallaga o‘ragan sallasi eynidan oshgan; imtilayotir Nazarga yetguday, agar yetsa yamlamay yutguday, **xalqumida bir tuya indamay yotguday** (46) kabi.

«Oychinor» dostoni sintaksisida **xalq maqollarining** qo‘llanilishi ham xarakterlidir. Ularning bir qismi xalq tilida mavjud maqollar. Masalan, *zo‘r bilan ko‘rda uyat yo‘q*. Xoliyornikiga Oybachinni Nazarboyga so‘rab kelgan sovchilar ana shu maqolni ishlatadi: *Shu qizingni Nazarboyga berasan, bermay ilojing yo‘q*. **«Zo‘r bilan ko‘rda uyat yo‘q»**, deyishadi. *Qanday qilsa ham qizingni oladi* (32).

Xalq tilidagi ayrim maqollar shaklan o‘zgarishlar bilan qo‘llangan. Masalan, sovchilarga qalinning shartlarini o‘zi tayinlagan Oychinor so‘zida quyidagi maqolni ishlatadi: *Bu narsalarni boy bobo bir joyda turib topishiga ishonaman. Agar topa olsa, qudrati yetsa, mayli, aytganlarimni topib kelsin, topib kelolmasa, o‘zidan ko‘rsin. Qurigan daraxtga suv quygan bilan ko‘karmaydi. Aytgan narsalarimni topsa, mayli kelsin, to‘y qilsa, to‘y qilsin, qancha to‘ksa-to‘ksin, u yog‘ini o‘zi bilsin* (34). Maqolda sovchi qo‘ygan Nazarboyning niyatiga yeta olmasligiga, bekorga ovora bo‘layotganiga ishora bor.

Yoki bo‘lmasin Nazarboyning kimligini bilib va Oychinorga uylanmoqchi ekanligini sezib qolgan Bobir shoh unga qarata:

*Mol yig‘ibsan, naga aql yig‘mading,
Shu aqlman kelib bizni aldading,
Teng-tengiga, tezak – ola qopiga,
Degan so‘zni qariganda bilmading.
Yoki sen bir boy qizga oshiq bo‘ldingmi,
Qizga emas, mulkka ega bo‘ldingmi,
Yosh qiz bo‘lsa nima qilsin o‘zingni,
Uyalmayin so‘ngra bunda keldingmi?* (44)

deydi.

Matndagi *Teng-tengiga, tezak – ola qopiga* maqolining xalq tilida me‘yorlashgan varianti *Teng tengi bilan, tezak qopi bilan*. Bu maqolni o‘tmishda boy va amaldorlar kambag‘al, beva-bechoralarni mensimay, odam o‘rnida

ko‘rmay mazax qilganda ishlatardilar.³³ Bobir shoh nutqida qo‘llanilgan bu maqol nafaqat nutqiy bezak, ayni paytda, shoh nutqidagi qat‘iyatni ta‘minlashga xizmat qilgan.

Xalq maqollardagi tulki nafaqat shum va hiylagar, ba‘zan tadbirkorlik timsoli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, *Tulki tulkiligini qilguncha, terisi qo‘ldan qo‘lga o‘tadi* maqoli bor. Xalq bu va bu kabi bir qator maqollarida ayyor, mug‘ombir, hiylagar shaxslar har qancha ustalik, uddaburonlik, ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rmasinlar, baribir bir kunmas bir kun qo‘lga tushib, tegishli jazolarini olishlari muqarrar ekanligini uqtiradi.³⁴ Jumladan, *Tulkining o‘ttiz ikki nayrang bor, eng yaxshisi ko‘rinmaslik*, degan maqolning ma‘nosi ham shunga yaqin. Dostonda Oychinor nomidan aytilgan quyidagi *Navkarlar borib aytgan bo‘lsa, endi Shayboniyning hamma odami izimdan tushgan bo‘lmasin. O‘z-o‘zimdanda uyg‘ondim, bunga ham shukur. Tulki aytar ekan: «Yetmish ikki hiylam bor, eng yaxshisi ko‘zga ko‘rinmayin»*. Nima qilsa ham yakkaman, ko‘za kunda emas, kunida sinadi. Ke, yaxshisi bularga ko‘rinmay ketganim ma‘qul», deb Tarlon bo‘zning jilovini qo‘yib, bir-ikki qamchi urib yubordi (101) gapida keltirilgan maqolda bu tasviriy vositaning tadbir bilan ish ko‘rish ma‘nosi namoyon bo‘lgan.

Dostonda keltirilgan boshqa xalq maqollarining ma‘nosida ham aytilayotgan fikrga uyg‘unlik sezilib turadi. Ular yordamida ham obrazlilik, ham mulohazani xalq donishmandligi namunasi bilan tasdiqlash muddaosi bo‘rtib turadi:

Qarindoshning tovushi

Qorong‘uda belgili,

Xolyor ham tikiladi,

Shumi izlagan guli?! (111) kabi.

Qarindoshning tovushi qorog‘ida belgili maqoli ovozidan qizini tanigan Xoliyorning ko‘nglidan kechgan bo‘lsa, *Nima bo‘lsang, qarindoshning ichida bo‘l* maqoli Oychinorning tilida qo‘llaniladi. Bu maqol asli andijonlik bo‘lgan Xoliyor va Oychinorga qarindoshlarini izlab Andijonga yo‘l olishiga asos bo‘ladi: –

³³ Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз: Ўзбек халқ мақоллари изоҳли луғати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, - Б.251.

³⁴ Юқоридаги луғат, -Б.258.

Bo‘lmasa, – dedi Oychinor, – enamning mozorini bir ziyorat qilaylik, undan keyin nima bo‘lsang, qarindoshing ichida bo‘l, degan gap bor, qarindoshlaringizni izlaylik (114). Yana: Oychinor aytdi: – Qo‘ying ota, qattiq kunda qoshingda qarab turgan qarindosh, qarindoshlik qilmaydi, ketib qolsa emchakdosh, deganday, qattiq kunda qochib ketgan Ernazarni nima qilamiz (116).

Dostonda qo‘llanilgan maqollarning ijtimoiy ahamiyati va badiiy salmog‘ini bilmoq maqsadida yana ayrim parchalarni ko‘zdan kechiramiz: *Oychinorning qaddi-bastiga qarab Xolyor suyuna yotir. «Xudoyim yolg‘iz farzand berdi, shul Chinorim ul bo‘lmadi-da. Ke qo‘y, farzandingni qiz dema, qilni qirqqa yorgansan, farzandingni ul dema, betayin ish qilgansan, deyishadi. Mening qizim qilni qirq yoradiganlardan bo‘lar», – deb o‘ylay berdi (113).* Maqollardan Qodir baxshi Oychinor shaxsiga yuksak muhabbat bilan munosabatda bo‘lganligi anglashilib turadi. Bu maqollarni qo‘llash bilan *farzandingning qiz tug‘ilganidan o‘ksinma, u o‘g‘ildan ziyod bo‘lishi mumkin, o‘g‘il tug‘ilganidan quvonma, u betayin bo‘lib chiqishi mumkin, demoqchi bo‘lgan baxshi amalda Oychinorning ana shunday farzand bo‘lib voyaga yetganligini maroq bilan hikoya qiladi.*

Izlab yurgan farzandini topib olgan Holiyor buning shukronasi sifatida Oychinorga *Mana, adashganning oldi yo‘l, deb xudoyim seni duch qildi (113),* deydi.

Doston matnidan olib tahlil etilgan bu maqollarning hammasi ham ommalashgan tasviriy vositalar emas. Ularni xalqimiz orasida, boshqacha aytganda, millatimizning hamma vakillari tomonidan faol qo‘llanib kelinayotgan birliklar deb bo‘lmaydi.

«O‘zbek xalq maqollari» kitobida ushbu maqollardan faqat *Qarindoshning tovushi qorong‘ida belgili ni uchratdik. Nima bo‘lsang, qarindoshing ichida bo‘l, Qattiq kunda qoshingda qarab turgan qarindosh, qarindoshlik qilmaydi, ketib qolsa emchakdosh* maqollari esa maqollar to‘plamidagi *Qayg‘u kunda – qarindosh. Yolg‘izlikda yor yaxshi, Munqlashganda – qarindosh. Yot – yeguncha, qarindosh – o‘lguncha. Yog‘ yeganda yot yaxshi, Qon yutganda – qarindosh. Davo – qarindoshdan. Oziqli ot horimas, Qarindoshli qarimas. Qarindoshli qarimas.*

Qarindoshniki qorong‘u kunda belgili. Qon yig‘laganda qarindosh, Yog‘ yalaganda yot yaxshi. Qon qarindosh – jon qarindosh. Qorong‘ida qichqirsang, Qarindosh tovush berar. Qarindoshim – qora qozonim, Urug‘im – unli chuvolim maqollar sirasini to‘ldiradi.³⁵ *Farzandingni qiz dema, qilni qirqqa yorgansan, farzandingni ul dema, betayin ish qilgansan, Adashganning oldi yo‘l* maqollari haqida ham shu gapni aytish mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, Qodir baxshi xalq maqollarining bilimdoni sifatida tasviriy vositalarning bu turiga munosabatda bo‘ldi. Ularni kam qo‘lladi, ammo o‘rniga qo‘yib foydalandi. Baxshining o‘z qahramonlari haqida aytmoqchi bo‘lgan gaplarning ma‘lum qismini maqollar aytdi.

Dostonda Qodir baxshi tomonidan alohida mehr-muhabbat bilan kuylangan obraz – Oychinor obrazidir. Oychinorning ichki dunyosi, xatti-harakati va tashqi qiyofasiga oid chizgilarning barchasi ulug‘ baxshining nafaqat doston aytish, ayni paytda, tildan foydalanish mahoratini namoyish etgan tasviriy vositalar sanaladi.

Shu boisdan ishimizning mazkur bobida doston matni grammatik-stilistik vositalarini, xususan, poetik sintaksisini tahlil etish jarayonida bu tasviriy vositalarni Oychinor obrazi atrofida birlashtirishga harakat qildik.

Doston ibtidosida Oychinor obraziga berilgan chizgilarda uning halinchak o‘ynab aytgan ashulasi juda ham ta’sirlidir. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida yashovchi xalqlarning qadimiy qo‘shiqdarida *oxuva* radifli qo‘shiq ham o‘zining milliy ruhi bilan ajralib turadi. Buni anglagan va yuqori baholagan Qodir baxshi qo‘shiqni Oychinor tilida yuksak poetik pog‘onaga ko‘targani bois, u Oychinor portreti tasvirida muhim ahamiyat kasb etgan, o‘n yetti yoshga to‘lgan qizning ichki olamini, hissiyotlarini ifodalashga xizmat qilgan. Baxshi voyaga yetib kelayotgan qizning tuyg‘ularini ochiq ifoda etish yo‘lidan bormaydi, balki uning ruhiy olamini qizning o‘zi kuylagan qo‘shiq orqali tinglovchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham yoqimli bir tarzda berishni lozim ko‘radi. Shu qo‘shiqdan olingan mana bu:

³⁵ Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусоқулов, Б. Саримсоқов. – Тошкент: Шарқ, 2005.

Osmondagi turnalar-a, oxuva,
Ikki o‘tar bir yilda-ya, oxuva,
Ikki oshiq biriksa-ya, oxuva,
Bir yil bo‘lmas bir kuncha-ya, oxuva.
Qushdan qo‘rqan bo‘dana-ya, oxuva,
Chiqolmaydi dalaga-ya, oxuva,
Yuzi ochilgan qizlar-a, oxuva,
Ming yil qolar baloga-ya, oxuva...
Halinchagimning bog‘i-ya oxuva,
Bir-biriga intizor-a, oxuva.
Mollar bo‘ldi izzatta-ya, oxuva
Mehnat qilgan xoru zor-a, oxuva (25)

parchada qo‘llangan stilistik formulalar eng go‘zal tasviriy vositalar sifatida ham Oychinor ichki dunyosining ochilishiga, ham ifodaning maroq bilan kuylanishiga, ayni paytda, miriqib tinglanishiga ko‘maklashadi.

Parchadagi

Ikki oshiq biriksa-ya, oxuva,
Bir yil bo‘lmas bir kuncha-ya, oxuva

misralari Oychinor qalbida kurtak otib kelayotgan muhabbat tuyg‘usiga ishora bo‘lsa,

Yuzi ochilgan qizlar-a, oxuva,
Ming yil qolar baloga-ya, oxuva...

uning yuksak andisha egasi ekanligidan, hayotga o‘z qarashi borligidan dalolatdir.

Quyidagi:

Mollar bo‘ldi izzatta-ya, oxuva
Mehnat qilgan xoru zor-a, oxuva

misralari ham garchi yosh bo‘lsa ham, Oychinorning hayot haqida mustaqil fikri borligiga ishora qiladi.

Dostonning bosh qahramoni Oychinor bizning ko‘z o‘ngimizda ilk bor ana shunday tarzda namoyon bo‘ladi va pozitiv fikrning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Dostonda duch kelganimiz ikkinchi obraz – Ernazar: *Chokari Ernazar yigirma yoshlarda bo‘lgan, qaddi-qomati ham yo‘lbarsday o‘sgan edi. Xoliyorning o‘g‘liday bo‘lib qolgan edi. Xoliyor: «Nasib qilsa qizimni Ernazarga beraman, ichkuyov qilib olaman-da», – deb yurar edi. (26).* Ernazarga berilgan ilk baho ijobiy – yo‘lbarsday. Ernazar Oychinorga duch kelganda uning husniga oshiq bo‘ladi. Endi baxshi Ernazarni ta’riflashga o‘tadi: *Oychinorning husnini ko‘rib o‘zini batamom yo‘qotib qo‘ygan edi. Bir-ikki daqiqadan so‘ng so‘zlayolmas tillariga so‘z kelib, boshiga aql, bilagiga kuch kelib, o‘zini to‘xtatolmay, bir so‘z aytib turibdi (26).*

Mana shu holatda baxshi poetik mahoratining ilk namunalariga duch kelamiz: *so‘zlayolmas tillariga so‘z kelib, boshiga aql, bilagiga kuch kelib...* Go‘zallik oldida hayratga tushish, ayni paytda, o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik, g‘ayrat-u shiddatni boy bermaslik va hokazo.

Ernazarning so‘zlarini eshitavergan sayin baxshi poetik olamining tub-tubiga kirib borilaveradi:

*Mendan boshqa ko‘rgan bo‘lsa yuzingni,
Qolgani bormikan bo‘lmay devona?!
Yoki mening baxtim kulib boqdimi,
Suv oqmas soylardan suvlar oqdimi (27).*

Keyingi ikki misrada an’anaviylik negizida shakllangan g‘oyat nafis va qodirona tasvirga duch kelamiz:

Suv oqmas soylardan suvlar oqdimi.

Boyning eshigida chorikorlik qilib yurgan, faqat bir amallab kunini o‘tkazish va qornini qo‘ydirish ilinjida bo‘lgan yigitning o‘z hayoti haqidagi fikri shunday. Uning qalbi ham *suv oqmas soy*. Ammo taqdirning hukmini qarangi, u ilk bor go‘zalikka duch keladi. Agar bu «odamzodni aldaydigan jin»sifat bu pari-paykarni boshqa birov ham ko‘rib qolgan bo‘lsa, devona bo‘lib qolmaganmikan, degan xayolga boradi. Shubhada davom etgan yigit, odamzodni rom etish va avrash yo‘lida inson qiyofasiga kirgan boshqa jonzod (dev, ajdaho) emasmikan, deb

shubhalandi. Lekin, qanday bo‘lmasin, ularning hech biri go‘zallikda qarshisida turgan qizga teng kelolmaydi:

*«Qiz bo‘lib avraydi», deydi ajdahor,
Olishsang bo‘larmi senga barobar (27).*

Ikkinchi misra garchi so‘roq tarzida shakllangan bo‘lsa-da, uning tasdiq mazmuni bor, o‘ziga maftun etishda hech bir jonzod tenglasha olmaydigan go‘zallik haqida poetik hukm bor. Fikrni bilib bilmaslikka olish, o‘zini go‘yo haratlanganday qilib ko‘rsatish yo‘li bilan qat’iyatni ifoda etish mumtoz she’riyatimizga xos bo‘lgan usullardandir.

Baxshi *so‘zlayolmas tillar* ni tilga kiritishda stilistik formulalar singari an’anaviy bayon uslubiga kam murojaat qilganligini, ifodada o‘z yo‘li borligini bu yerda ham kuzatamiz. Masalan, Ernazarning Oychinorga ilk duch kelgan holati ifodasida quyidagi an’anaviy jumlar qo‘llanilgan:

*Bulbullar sayrashar bog‘ning gulida,
Ming to‘ti sayrashar o‘ng-u so‘lida (26).*

Xullas, bir ko‘rishdayoq oshiq yigitning qalbida ishq o‘ti alangalandi. U endi o‘z muhabbati yo‘lida har qanday g‘ovlarni yengib o‘tishga ruhan tayyor, faqat qarshisida turgan *gul yuzli dilbar* o‘zining kim ekanligini va qayerdanligini aytsa bo‘ldi:

*Makoningni aytgin gul yuzli dilbar,
Yo‘lingda yanchayin aziz boshlarni (27) kabi.*

Ammo doston boshida *yo‘lbarsday* deb ta’riflangan Ernazar o‘z muhabbati uchun kurashmaydi, berilgan bu bahoni oqlamaydi.

Epizodlarning birida Qaysarning bosqinchi jallodlari qizini olib ketishga qarshilik ko‘rsatgan Oyto‘ti momoning boshini tanasidan judo qilish holati tasvirlangan:

*Jallod jallodligini endi qiladi,
Berdiyori qo‘liga qilich oladi,
Bular tug‘ilmagan aslo enadan,
Mushtipar boshiga qilich soladi (50).*

Shundan keyingi holatni ko‘ring:

***Ko‘kda bulut ko‘rdi buni, jiladi
Baland tog‘lar o‘pirilib quladi (51).***

Muayyan jarayonni bu tarzda tasvirlash har qanday baxshi uddasidan chiqadigan ish emas. Jonlantirish usulidan foydalanib, inson ruhiy olami va tabiatni bu darajada uyg‘un tasvirlash har qanday ijodkorning ham qo‘lidan kelavermaydi. Qotillik tasvirida davom etgan baxshi:

*Qo‘li bo‘shab shiqqa tushdi gavdasi,
Bolasiga qoni oqib boradi.
«Voh, enam!» – deb zor qaqshadi Oychinor,
Yig‘lashiman archalarni qulatdi (50)*

deydi. O‘quvchi ham, tinglovchi ham Oychinorning yig‘lashidan archalar qulaganini mubolag‘a, deb qabul qilmaydi. Aksincha, Oychinorga o‘z ruhiyatida hamdardlik sezadi. Zero Qodir baxshi badiiy mahoratining kuchi ham shundadir.

Inson va tabiat uyg‘unligi mana bu tasvirda ham yaqqol bilinib turadi:

*– Tilga kiring, hayvonlar,
Otam shundan o‘tdimi,
Aytinglar, o‘t-o‘lanlar,
Yig‘lab otam o‘tdimi?! (108).*

Mana shu tarzda Oychinor itlarga, qarg‘alarga, bedanalarga, daralarga, sayilgohlarga, gullarga murojaat qiladi, ulardan otasining qayerdaligini so‘raydi.

Endi Oychinorni bog‘lab olib ketayotganini aytayotgan baxshining ohini eshitamiz:

*Boylagan zolimlar ketib boradi,
Oychinor o‘zini otib boradi,
Toqat qilolmay yig‘lashiga yulduzlar,
Qoboq-qoboqlarga botib boradi.
«Oh» deganda taqqa to‘xtab bo‘rilar
Ulu solib Oychinorga qo‘shildi.
Ena desa, yerlar erib boradi,*

*Ena desa, qorlar erib boradi,
Yig'layotir, enam deydi mushtipar,
Temir, cho'yan, toshlar erib boradi.
Ikki jallod ko'nglin xushlab boradi,
Oychinor yuziga mushtlab boradi,
Toqat qilmay jallodlarning bedovi,
Qora yerga yoshin tashlab boradi.
Bo'larmikan har kimsaning enasi,
Ena desa, yig'lar tog'ning giyasi,
Har enam deb tovush qilsa Oychinor,
Bo'kirishib qolar cho'lning tuyasi (51).*

Zolimlar qo'liga tushgan Oychinorning holati toqat qilib bo'lmas darajada og'ir. Uning yig'lashiga hatto yulduzlar toqat qilolmasligi haqidagi tasvirni boshqa badiiy adabiyotlarda o'qigan bo'lishimiz mumkin. Ammo bunday holatga tushgan yulduzlarning inson qovoqlariga botishi faqat Qodir baxshi badiiy tafakkurining mahsuli. Biz bo'rini vahshiy va rahmsiz hayvon sifatida bilamiz. Hatto shunday vahshiy hayvonlar ham Oychinorga rahmi kelib uv tortishdi. Oychinorning yig'isiga temirlar, cho'yanlar, toshlar erib ketdi, tog'lardagi gilyohlar, cho'llardagi tuyalar qo'shilib yig'ladi. Berdiyori va Keldiyori mingan otlar ham yig'lab – *qora yerga yoshin tashlab boryapti*. Ularning o'zlari-chi? Ko'ngillari chog', qilgan ishlaridan mamnun. Tasvir jarayonida baxshi qo'llagan antiteza usuli juda kuchli samara bergan. Bu ikki jallodga nafratning cheki yo'q. *Bular tug'ilmagan aslo enadan (50)*, deydi baxshi.

Bu yerda ham asar qahramoni va tabiat uyg'unligini kuzatamiz. Oychinorning ohlari atrof-muhitning ohlari bilan qorishib ketgan. Zero bu ham Qodir baxshi iste'dodining bir tasdig'i. Bu misralarni o'qib, bizda ba'zi epizodlar tasvirida baxshi uchun qalb dardlarini to'kishga imkoniyat yaratilgandek tasavvur paydo bo'ldi.

Har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan Qaysar Oychinorni Shayboniyxonga tortiq qilish niyatida bo'ladi. Bu niyatni eshitgan Oychinor endi

ularga qarshi kurashishdan boshqa yo‘li qolmaganini anglab yetadi va hayot-mamot jangiga otlanadi.

Qodir baxshining katta iste’dod sohibi ekanligining dalolati shundaki, u Oychinorning bu kayfiyatini yurakdan his qiladi, real haqiqat oldida biroz dovdiraganday bo‘ladi:

*Er boshiga ish tushsa
Etik bilan suv kechar,
Mard boshiga ish tushsa,
Tortinmay jondan kechar.
Qiz boshiga ish tushsa,
Bilmadim, nedan kechar?! (73).*

Shunday paytda Qodir baxshining Oychinori Qaysar va ikki navkarini g‘aflatda qoldirib, ularga qarshi hujumga tashlanadi. Mana uning shiddatini ifodalovchi misralar:

*Tetik tutdi o‘zini,
Dilga joylab so‘zini,
Burgutday qip tiklatdi,
Avval sipo ko‘zini.
Yumshoq pardayin qo‘li
Oq po‘latga aylandi,
Gulday nozik bilagi
Nor beliga aylandi.
Kamon edi qoshlari,
Yondiruvchi o‘q bo‘ldi,
Qo‘rquv, uyat degan so‘z
Soyadayin yo‘q bo‘ldi.
Kiyik edi tog‘dagi,
To‘qaydagi sher bo‘ldi,
Past edi-ku nazari,
Endi baland qir bo‘ldi.*

*To 'ti edi qafasda,
Bozorlarda sotilgan,
Burgut bo 'ldi silkinib,
Ming yigitga tatilgan (74).*

Antiteza usulini qo'llashni poetik mahorat darajasiga ko'targan baxshi Oychinorning avvalgi va keyingi holatini taqqoslaydi: *yumshoq par←qo 'l→po 'lat; nozik←bilak→nor beli; kamonday egilgan←qosh→ yondiruvchi o 'q; qo 'rquv, uyat←so 'z→yo 'qolish; kiyik←Oychinor→sher; past←nazar→baland; to 'ti←Oychinor→burgut* kabi.

Ana endi baxshi «ochiladi»:

*Otni qistab Oychinor
Keldiyorga yetadi,
Qo 'lidagi qilichi
Bo 'ynin silab o 'tadi (75).*

Baxshi Oychinor qilichi bilan Berdiyord va Keldiyordan qasdini oladi.

***O'ylamagan kallasi
Yerga tushib o 'ylandi,
Jonni olgan qo 'llari
O 'z-o 'zidan boylandi (75)***

deydi, baxshi.

Endi navbat Qaysarbekka keladi. Baxshi Qaysarga achinmaydi, uning xarob bo'lgan ahvolini masxaraomuz tarzda tasvirlaydi. Uning holatidan bir parcha:

*Shang 'illaydi qulog 'i,
O 'lim keldi deganday,
Dirillaydi badani,
Bo 'ri tortib yeganday.
Og 'zi qoldi ochilib,
Yalmog 'izning go 'riday,
Burni ketdi tirishib,
Is bo 'p ketgan mo 'riday (75).*

Oychinorning shayboniylar bilan jang tasvirini berishda baxshi romantik tasvir doirasida qolib ketmagan, balki uning jasoratini realistik ifodalashga intilgan:

*Qaydan keldi bunday kuch,
Oychinor ham bilmaydi,
Yasov tortib kelganga,
Sen nimasan, demaydi.
Jabr tortgan Oychinor
To‘ydimikan jonidan,
Shunga jirkanmadimi
Odamzodning qonidan (98).*

Ammo qanchalik jasorat va matonat ko‘rsatmasin, baxshi Oychinorning ayol zotidan ekanligini bir lahza bo‘lsa-da, unutmaydi. Bobir shohning navkarlari uni daryodan o‘tkazib qo‘yayotgan payti tasvirida quyidagi misralarni o‘qiymiz:

*Hayday berdi kemachi,
Oychinor oy ustida,
Suvlar urar buralib,
Baliqlari pastida (87).*

Ushbu parchalari tinglagan va o‘qigan kishida baxshi iste’dodiga, badiiy ifodadagi ziyrakligiga tahsinlar aytadi, baxshiga nisbatan mehr tuyg‘usi kuchayadi. Baxshi esa Oychinorni ta’riflashni tildan qo‘ymaydi, uning chiroyini Yusufning chiroyiga tenglashtiradi:

*Kuchni bergan xudoyim,
Husnni ham beribdi,
Yusufning jamolini
Bunga hadya etibdi. (88)*

Onasining o‘limiga o‘zini sababchi deb bilan Oychinorning alam va armonlari bir dunyo. Mana bu holatda – onasining qabri ustida u yana bir bor haqiqiy farzand sifatida namoyon bo‘ladi:

Enajonim, madorim,

*Men bo'lmadim bovringda,
O'ynab-kulib yurmadim,
Bo'stoningda, davringda.
Mening uchun azobni
Sen ko'rdingmi, enajon,
Mening uchun qon yig'lab,
Sen qoldingmi, enajon.
Mening uchun saharda
Sachrab turgan quvvatim,
O'ylatmagan, o'ynatgan,
Uyimdagi davlatim.
Saharlarda sochimni
Oppog'im, deb silagan,
Umirimni xudodan
Uzun qil, deb tilagan.
Oldi sochimni doim
Oltov qilib o'rganim,
Yelka sochimni doim.
Yetov qilib o'rganim.
Xizimatingda, enajon,
Qo'lim kasov qilmadim,
Menday qizing, g'amxo'rim,
Sendan oldin o'lmadim.
Seni bunday ko'rguncha,
Manglaylarim o'yilsin,
Mozoringga enajon,
Bergan qoning quyilsin.
Sochim bilan yo'lingni
Supurmadim, enajon,
Sening bilan qo'shib,*

Jon bermadim, enajon (115-116).

Qodir baxshining mazkur dostoni garchi ogʻzaki ijod namunasi sifatida eʼtirof etilsa ham, undagi badiiyatning, obrazlilikning kuchlilikgi xuddi yozma adabiyot namunalari kabi taassurot qoldiradi. Chunki badiiy tasvirda shunday holatlar borki, har bir detal, har bir obraz tasviri ustida koʻp vaqt oʻylashga, bosh qotirishga toʻgʻri keladi. Epik asar esa improvizatsiya mahsuli, bu yerda bamaylixtir oʻylab oʻtirishga vaqt ham, imkon ham yoʻq. Improvizatsiya jarayonida odatda xayolga kelgan oʻy-fikr yuzaga chiqariladi.

Ammo Qodir baxshi shunday oniy bir lahzalarda ham til birliklarini tanlay oladi, har qanday aytishi noqulay boʻlgan narsa-hodisalarni ham mumkin qadar madaniy tarzda ifodalashning uddasidan chiqadi. Masalan, *Xolyor bechora ham nima qilsin, Oytoʻtini jamoaga qoʻshib, qizini yoʻqotib, bor budi-shudini bir eshakka ortib, elu xalqdan bir soʻrab surishtirayin, shoyad yolgʻizgina qizimni topolsam, – deb boshi oqqan tomonga qarab ketdi (60)* parchasidagi oʻlgan kishini koʻmish ni jamoaga qoʻshmoq tarzida evfimistik ifodalash fikrimizni tasdiqlaydi.

Yoki doston nihoyasida Oychinorning yurt ozodligi uchun shayboniylar bilan jang qilgani hikoya qilinadi. Jangda Oychinor qahramonlarcha halok boʻladi. Ammo buni aytishga baxshining tili bormaydi, uni uxladi deydi:

Bir zamonning yomoni

Oychinorni uxlatdi (127)

Doston matni obrazlilikni, aytishda ravonlik va eshitishda yengillikni taʼminlovchi bu kabi grammatik-stilistik vositalarga gʻoyatda boy. Masalan,

Kim tanimas mard yigitning zoʻrini,

Bogʻla desang, bogʻlar dev-u parini (33).

Ot chopdi baland-pastidan,

Kim kuymas zolim dastidan (49).

Kim kuymaydi gʻanimlarning dastidan,

Botir qutuladi nomard dastidan (52)

misralarida stilistik formulalar tarkibini tashkil etgan ritorik soʻroq gaplar,

Belga boylab isfihon,

Agar sermasa olar jon (47).

Ot haydar fe'li qoralar,

Qoralar emas, qarg'alar (48)

misralaridagi metaforik qo'llanishlar, *Hamma yukini orta berdi, otning beligi torta berdi, beliga kamarini, kamariga qilichini boylata berdi. Hamma o'z boshiga harakat qilib, yo'l taraddudini qila berdi. Oldin bo'lganlar yo'lga tusha berdi. Keyin qolganiga sardorlar: – Bo'lchi-bo'l, – deb do'q qila berdi* tarzida kesimning uyushgan holda kelishi,

Ne deyarin bilmaydi,

Yerlarga qarayotir (56)

Nazarbek otning qoshiga borib, uzangiga oyog'ini qo'yib, kecha ish ko'rgan emasmi, zarildan ot beliga mindi. Qaysarbek bilan xo'sh-xo'shlashib bir to'ba bermon oshdi, endi yuragi joylashdi, xo'rsinib nafas oldi. «Kemaylar ketay bu joyga», deb ketib borayotir singari holatlarda ko'plik ko'rsatkichi -lar o'zining asosiy grammatik vazifasidan tashqari qo'shimcha stilistik ottenkalarining yuzaga kelishiga ko'maklashishi,

Sardorlar ketayotir

Kumush egar ustida (68)

Tilla egar, jabduqni

Sovg'a qilmoqchi edik (100)

parchalarida *oltin, kumush* singari doimiy epitetlarning ishlatilishi,

Na kunduzi to'xtaydi,

Kechasi yo'q halovat,

Kecha-kunduz yurishi

Bo'ldimikan yo odat (71)

singari nazmiy matnlarda qofiya san'atidan alohda did bilan foydalanishi va misralarning asosan 4+3=7 tartibida berilishi Qodir baxshi uslubining ravonligidan, poetik mahoratining yuksak darajada bo'lanligidan dalolat berib turadi. Shu ma'noda «Oychinor» dostoni Qodir baxshining nomini nafaqat doston

kuylovchi, ayni paytda, noyob iste'dod egasi, hassos shoir sifatida ham milliy ma'naviyatimiz va adabiyotimiz tarixiga abadiy muhrlagan epik asardir.

Qodir baxshi dostonni o'zidan avval Turdi baxshi kuylaganini aytgan. Afsuski, dostonning bu varianti yozib olinmagan va bu ikki dostonni qiyosiy o'rganishning imkoniyati yo'q.

Faqat shu narsani ishonch bilan ayta olamizki, Qodir baxshi tilida yaralgan Oychinor obrazi xalqimiz tarixidagi jasur momolarimiz sha'niga aytilgan mangu qo'shiqdir.

Uchinchi bob yuzasidan qisqa xulosalar

«Oychinor» dostoni grammatik vositalari matn poetik sintaksisining mukammal bir holatda yuzaga chiqishiga ko'maklashgan. Asar matnida qo'llangan egalik, ko'plik ko'rsatkichlari, o'xshatishni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar, epitetli birikmalar buning dalilidir. Matn qurilishida faol ishlatilgan stilistik formulalar, xalq maqollari uning tarkibiy qismi sifatida ifoda mazmunining reallashuviga, badiiy-estetik ta'sirning samarali bo'lishiga xizmat qilgan. Poetik sintaksis elementlarining ma'lum qismi an'anaviy xarakterda bo'lsa, ikkinchi bir qismi asar muallfi badiiy tafakkuri mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

Qodir baxshi ijodiga mansub stilistik formulalar, kutilmagan tashbehlar, bayondagi ravon uslub uning yuksak iste'dodi va shoirona qalbidan dalolat berib turadi.

XULOSA

O‘zbekiston xalq baxshisi Qodir Rahimov – Qodir baxshining «Oychinor» dostoni yuzasidan olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

«Oychinor» sujeti o‘zbek xalqi orasida ma’lum bo‘lgan, Qodir baxshining ta’kidlashicha, undan avval ham boshqa baxshilar tomonidan kuylangan, shuningdek o‘zbek xalq dostonchiligi an’analarini o‘zida mujassam qilgan epik asardir.

